

84(529)1  
M 94 KP  
402627

DR

# MUQIMIY



MUQIMIY

❖ SAYLANMA ❖



TOSHKENT «MA'NAVIYAT» 2009

Muqimiyning ushbu majmuasi maktab o‘quvchilari saviyasiga mo‘ljallangan bo‘lib, o‘quv dasturlarida uning hayoti va ijodi bilan muxtasar tanishgan o‘quvchilar mazkur to‘plam orqali shoir ijodiga yanada teranroq kirib boradilar. Lirik g‘azallari, murabba va muxammaslaridagi tabiat go‘zalligi, insoniy tuyg‘ularning rang-barangligidan zavq-shavq olsalar, hajviy, humoristik asarlari va «Sayohatnoma»lari orqali shoirning ijtimoiy-tarixiy voqelikka faol munosabatini anglab yetadilar.

Nashrga tayyorlovchi  
filologiya fanlari doktori, professor

**G‘ulom Karimov**

Mas’ul muharrir  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**S. Ahmedov**

84(5Y)1  
M95

**Muqimiylar.**

**Saylanma** / Muqimiylar; Nashrga tayyorlovchi  
G‘. Karimov. – T.: «Ma’naviyat», 2009. – 96 b.

ББК 84(5Y)1

M 4702620204-16  
M25(04)-09

ISBN 978-9943-04-052-6

© «Ma’naviyat», 2009



## **NAVBAHOR**

Navbahor ochildi gullar, sabza bo'ldi bog'lar,  
Suhbat aylaylik kelinglar, jo'ralar, o'rtog'lar.


Xush bu mahfilda tiriklik ulfat-u ahbob ila,  
O'ynashib, gohe tabiatni qilaylik chog'lar.

Rux ochib ko'zdin nihon bo'lsa paridek, naylayin,  
Ayrilib hush-u aqldin telba bo'lmay sog'lar.

Hayfkim ahli tamiz ushbu mahalda xor ekan,  
Oldilar har yerda bulbul oshyonin zog'lar.

Marham istab kimsadin, zaxmi dil izhor aylasang,  
Choraye qilmoqdin o'zga, ustig'a tirmog'lar.

Tobakay mundog' malomat kunjida doim Muqim,  
Bu zamon ko'z tutgin emdi senga bo'lsun tog'lar.



## **YAKKA BU FARG‘ONADA**

Oshiq ermasman yuzingga yakka bu Farg‘onada,  
Zohid istar ka’balarda, barhaman butxonada.

Kimga dod aylay bu bedodingni man, ey sangdil,  
Oshno bo‘ldim desam, ko‘nglung seni begonada.


Sham’i ruxsoring yonar mahfilda gul-gul kechalar,  
Bormudi qasding magar kuydirgali parvonada.

Man’ etib, ey muhtasib, har dam boshimga kelmag‘il,  
Bo‘lsa naylay, mast bo‘lmay, maskanim mayxonada.

G‘ofilo, fikr aylag‘il, uqboni rohat istasang,  
Shodlig‘ ko‘z tutmakim, bo‘lmaydi mehnatxonada.

Manzilimni so‘rma, ey mag‘ruri mulki dastgoh,  
Dahr sahroyi junun uy bo‘limg‘ay devonada.

Bulbul aylar nolalar yolg‘iz dema, ey gul’uzor,  
Cho‘g‘zdek qilg‘ay Muqimiy ham navo vayronada.



## **ARZIMNI AYTAY**

Arzimni aytay bodi sabog‘a,  
Shoyad gapurgay ul gulqabog‘a.

Albatta kelsun, holimni so‘rsun,  
Andisha qilsun ro‘zi jazog‘a.

Necha zamondur, ko‘zga nihondur,  
Har kim yomondur, soldim xudog‘a.

Ohim eshitmay, dodimga yetmay,  
Bir ta’sir etmay, ketti havog‘a.


Mandin chu ohu, ram qildi badxo‘,  
Bulkim g‘arazgo‘ tushdi arog‘a.

Bo‘ldim fasona, subh-u shabona,  
Ko‘ksim nishona tiyri jafog‘a.

O‘zi uyonsun, hajrida qonsun,  
Dardig‘a borsun qayda davog‘a.

Bo‘lgay xiromon, boqmay shitobon,  
Qilmasmu ehson sulton gadog‘a.

Yo‘q zarr-u siymi, lekin samimiyl  
Oshiq Muqimiy kelsa duog‘a.



## **FARHOD AYLADING**

Bog‘ aro, jono, o‘shal kim jilva bunyod aylading,  
Kabk ila tovusni raftoringga minqod aylading.

Maqsading shamshod shoxin bo‘lmasa gar sindirish,  
Qomatingni muncha mundoq sarvi ozod aylading.


Gah salom aylab o‘tib shirin tabassumlar bilan,  
Ko‘hi g‘am qozsam meni ham misli Farhod aylading.

Hech oshiqlarni ohi sanga ta‘sir etmadi,  
Ne balo ko‘nglungni qattig‘lig‘da po‘lod aylading.

Bog‘lar sahnida javlonlar qilib yuz noz ila,  
Har qadam qo‘yding chaman tarhini ijod aylading.

Fasli asr aylab chiqib ag‘yorlarga boqmading,  
Yaxshi qilding shul tag‘ofildin dilim shod aylading.

Saxt ko‘ngullar, Muqimiyl, g‘am bilan vayron edi,  
Bir boqib, yolg‘on emas, lekin chin obod aylading.



## **AYLADING KETDING**

Ko‘ngulni g‘uncha yanglig‘ tah-batah qon aylading ketding,  
Xaloyiq ichra ma’yus-u parishon aylading ketding.


Otib tiyra jafo dillarga har yondin solib rahna,  
Nachuk sultonki, tan mulkini vayron aylading ketding.

Judolig‘ kunjida yetmasmudi hasratda qolg‘onim,  
Yana sha’nimga bir ortuqcha bo‘hton aylading ketding.

Agar tosh bo‘lsa ham ko‘ngling erib lozim edi rahming,  
Ko‘zicha dushmanim yer birla yakson aylading ketding.

Avaldin oshnolig‘ qilmasamchi, oxiri tashlab,  
Umidim shulmidikim, zor-u hayron aylading ketding.

Duysi davlating ko‘zlar Muqimiyl, garchikim mahrum,  
Bo‘lakka ne’mati vasling farovon aylading ketding.



## **LOLAZOR AYLAB KELING**

Kelsangiz kulbam aro ko'zni xumor aylab keling,  
Shum raqiblar ko'zidin, ey jonim, or aylab keling.

Hasratingda ko'zlarimdin seldek yoshim oqar,  
Maqsadimni(ng) g'unchasin ochib, bahor aylab keling.


Qatra-qatra qon to'karmen yo'llaringda termulub,  
Sanga oshiqni kim aytdi, intizor aylab keling.

Gulshan ichra lof urar shamshod qaddini ko'rub,  
Qomatizingiz ko'rsatib bir sharmisor aylab keling.

Uchrasa ag'yor agar qilmay nazar bismil qilib,  
Qonlaridin ko'chalarni lolazor aylab keling.

Manga zohid ta'n etmush emdi, ey oromi jon,  
Oni ham borib meningdek beqaror aylab keling.

Hech guldin bu Muqimiyl tobmadi bo'yi huzur,  
Kulbami, ohu ko'zum, mushki totor aylab keling.



## **QACHONG‘ACHA**

Ag‘yor eliga lutf ila ehson qachong‘acha?  
Qilmoq ko‘ngulni lola kabi qon qachong‘acha?

Hajringda tiyra ro‘z o‘lib, zahri g‘am maosh,  
Mundoq nihonsen, ey mahi tobon, qachong‘acha?


Yuz va’dani birig‘a qachon aylading vafo,  
Sindurmak oxir ahd ila paymon qachong‘acha?

Vayron ko‘ngulning bo‘lsa binolari maylimu,  
Qilmak bu ko‘zning yoshini to‘fon qachong‘acha?

Bulbul fig‘on-u qumri chekib oh-u nolalar,  
Gullar chamanda choki girebon qachong‘acha?

Vaslingg‘a ham yetarmudi, ey Laylivash, kishi,  
Majnun kezarda dashtda hijron qachong‘acha?

Kokillaringni shonalar aylab Muqimiyni  
Qilmak bu sheva birla parishon qachong‘acha?



## JAMOLINGNI KO'RUB...

Toqat o'ldi toq, ey mahvash, jamolingni ko'rub,  
Volai shaydoi o'ldim xatt-u holingni ko'rub.

Loladek nozik badanlar kokil afshonlar chekib,  
Dog'i ko'nglimda o'shal ranj-u malolingni ko'rub.


O'zga bog'larga bino qo'y may, nigoro, qil xirom,  
Shoxi sinsun sarvni ra'no niholingni ko'rub.

Xomush o'lturmay gapur, jonoki, bo'lsun gung-u lol  
To'tiyi shirin takallum qiyil-u qoliningni ko'rub.

Oy malohatda yetolmay yuz xijolatlar bilan,  
Bo'ldi kam-kam kimki bu husni kamolingni ko'rub.

Ne ajabkim yuz o'gursa men kabi zuhd ahli ham,  
To abad mehrobdan abru hilolingni ko'rub.

Nazm ko'zgusig'a sayqal berdi vasfmg-la, Muqim,  
Tobsa shoyad xotiri taskin misolingni ko'rub.



## **YOLG‘UZ**

Banogah uchradi ot o‘ynatib bir dirlrabo yolg‘uz,  
Rikobig‘a surib ko‘z, qo‘l ochib qildim duo yolg‘uz.

Dedikim: «Nozaninlar xaylida insof qilganda,  
O‘zingdur xush takallum, to‘tii shirin ado yolg‘uz».


Tabassum birla pinhona dedi: «Oshiqlarim ichra  
Vale sen ham asir-u mubtalolig‘da judo yolg‘uz».

Dedim: «Jono, chekardim dardi hijroningni muddatlar,  
Harimi vaslinga mahramlig‘ erdi muddao yolg‘uz».

Dedi: «Xilvatda tanho ko‘rmagingdin ne g‘araz bordur?»  
Dedimkim: «Orzu shuldurki, jon qilsam fido yolg‘uz».

Urub bir qamchi aydi: «Oshma haddingdinki, shohlarni  
Ko‘rolmas hech bir yerda necha sandek gado yolg‘uz».

Muqimiyni panohi ismatingda asrag‘il, yo rab,  
Xatarlik dasht aro gumgashtai berahnamo yolg‘uz.



## **QAYDA BORAY**

To jilva qildi ul pari, men mubtalo qayda boray?  
Emdi degaykim, bor nari, men mubtalo qayda boray?

Kokillarin dom ayladi, subhim qaro shom ayladi,  
Tobora nokom ayladi, men mubtalo qayda boray?


Umre bo'lub ovoralar, ko'ksimda bitmas yoralar,  
Gar qilmas ersa choralar, men mubtalo qayda boray?

Yuz noz ila bir-bir bosib, keldi niqobini ochib,  
Hayron qilib ketdi qochib, men mubtalo qayda boray?

Yetti falakka nolishim, hal bo'ljadi mushkul ishim,  
O'zga o'zidan yo'q kishim, men mubtalo qayda boray?

Yo rab, yomon-u gandaman, osiy-u ham sharmandaman,  
Ne hukm bo'lsa bandaman, men mubtalo qayda boray?

Borsang ko'yig'a, qosido, ayg'il Muqimiyydin duo,  
Baskim, zaif-u beaso men mubtalo qayda boray?



## **DILNI AFGOR AYLADING**

Oqibat, ey bemuruvvat, dilni afgor aylading,  
Yaxshi ish qilsang edi, shul ishni bekor aylading.


Men kabi jonso‘zdin yakbora yuzni o‘gurib,  
Bora-bora, sad darig‘o, mayli ag‘yor aylading.

Ne uchun rashk o‘tlarig‘a sham’dek yoqilmayin,  
Oshnolardin kechib, begonani yor aylading.

Bog‘ aro yolg‘iz jigar xun, men emas, gullarni ham  
Lola ko‘ksin dog‘ qat-qat diyda xunbor aylading.

Umr o‘tar, jono, bukun mahsharni ham andisha qil,  
Ne gunoh qildimki, oxir javr bisyor aylading.

Yo‘qli g‘amxo‘re desa bechorai sho‘rlik Muqim,  
Yordin ajrab zahr-u zaqqum birla iftor aylading.



## **EY YORI JONIM**

Oshiq bo'lubman, ey yori jonim,  
Vaslingni izlab yo'qdur majolim.

Bir yo'qlamaysan kuygan qulingni,  
Ko'zlari jallod, nozik niholim.


Rahm ayla manga, ey bag'ri qattiq,  
Diydam to'la qon, ey sho'xi zolim.

Labtashnalarga ayla nazzora,  
Qaddi chu shamshod, qoshi hilolim.

Olding ko'ngulni bir-ikki so'zlab,  
Devona bo'ldim, to'ti maqolim.

Har dam kuyarman yodimg'a tushsang,  
Bir ko'rmaguncha yo'qdur majolim.

Necha zamondur, ko'zdin nihondur,  
Oshiq Muqimiyl, ey xasta jolim.



## AQL-U HUSH

Aql-u hush uchdi boshimdin ey pari, devonaman,  
Bir iloje qil, el ichra bo'lmayin afsona man.

Dard-u so'z-u ashk-u ohimni qiyos et sham'din,  
Shomdin to subhidam hajringda o'rtab yonaman.

Ul zamonekim, yiroq vaslingdin o'ldim, to bu dam  
Har kecha yodingda ming yo'l uyqudin uyg'onaman.


Lahzaye zahri g'amming yutmoqqa toqat qolmadi,  
No'sh etib vasling mayidin ham qachon bir qonaman.

Xoma mujgon, ko'z qarosidin yozib rozi dilim,  
Arzaye qildim, eshit, ma'yus-u mushtoqonaman.

Ohkim, sensiz qaror-u sabr-u oromim ketib,  
Bir ilon chaqqan kishidek har taraf to'lg'onaman.

Navbati jomim to'la quyg'il karamdin, soqiyo,  
Har qadamda to qilay yuz lag'zishi mastonaman.

Mulki Hind-u Marvdin kelsam topardim e'tibor,  
Shul erur aybim, Muqimiyl, mardumi Farg'onaman.



## O'ZGANI YOR ETMAYIN

Ahd qildim emdi sandin o'zgani yor etmayin,  
Har guli ra'noga mundog' o'zni ko'p xor etmayin.

Bora-bora mayli ag'yor aylading, ketding, netay,  
Rashk o'tig'a o'rtanib, ko'zlarni xunbor etmayin.

Dardsizlar bilmas erdilar, xush erdim, ohkim,  
Bo'lmas erkan ishq sIRRIn elga izhor etmayin.

Erta-kech vaslingga shod aylardin ortuq demading,  
Intizor aylab yo'llimda muncha ham zor etmayin.


Lablaringdin zohir et, jono, tabassum oshkor,  
La'l birlan orzuyi durri shahvor etmayin.

Hech tarso qolmas erdi ko'rsalar mushkin soching,  
Dinidin qaytib demongkim yodi zinnor etmayin.

Xurram etsang ne bo'lurkim, soqiyo, bir jom ila  
Bu sifat maxmur subhimni shabi tor etmayin.

Ey pari, qaydog' sohirsanki, olib hushimi,  
Qo'ymading ko'rsam qachon tasviri devor etmayin.

Nazmimi mag'zig'a vasfini Muqimiy toj etib,  
Naylayin har dam o'qib, nomingni takror etmayin.



## **BIR KELIB KETSUN**

Sabo, arz ayla to ul zulfi rayhon bir kelib ketsun,  
Ki topsun bo'yidin tan har nafas jon, bir kelib ketsun.

Qolib hijronlarida, sog'inib hasrat bilan oxir –  
Jahon gulzori bo'ldi menga zindon, bir kelib ketsun...


Lisoni so'zga bovar qilmas ersa, qosido, ayg'il,  
Uray oshiqlig'imga maxfi qur'on, bir kelib ketsun.

Qadi sarvi sihini munfail aylib, ochib oraz,  
Qilib gulni xijil choki giribon, bir kelib ketsun.

Ko'rarga benihoyat zor-u mushtoq o'lg'anim ayting,  
Agar bo'lsa ishi ham, hattal-imkon, bir kelib ketsun.

Kelishga fursati gar bo'lman vaqtida ham lekin,  
Iki toshning arosida shitobon bir kelib ketsun.

Muqimiy holi zorin so'rg'ali ayni muruvvatdур,  
Degil, insoflik bo'lsa musulmon, bir kelib ketsun.



## **KIM DESUN**

Ul tag‘oful peshag‘a holi xarobim kim desun?  
Hajrida mundog‘ meni ko‘rgan azobim kim desun?

Kunduzi bir yerda bir dam olmay orom-u qaror,  
Lahzaye yo‘q kechalar ko‘zlarda xobim kim desun?


O‘z ko‘mochig‘a, masalkim, tortadur kul har kishi,  
Bas, kuyub ishqida chekkan iztirobim kim desun?

Kuymagan bo‘lsa birov mehr-u muhabbat o‘tig‘a,  
Sham’dek to subh o‘rtab tabbu tobim kim desun?

Hamnishindurlar ulug‘larga xushomadgo‘ylar,  
Yo‘lida jononimi xayr-u savobim kim desun?

Gar qilich boshimg‘a ham kelsa degayman rostin,  
So‘zki haq bo‘lsa, savolimg‘a javobim kim desun?

Do‘sstar, so‘rsang g‘izosidin Muqimiy, erta-kech,  
Qon sharob ichsam, jigarlardur kabobim, kim desun?



## **ZULMILA QAHR-U G'AZAB**

Zulm ila qahr-u g'azab izhor qilmoq shunchalar,  
Oshiqi bechoraga ozor qilmoq shunchalar.

Gul debon sevgan kishining ko'kragiga nish urib,  
Xasta-yu ma'yus etib, afgor qilmoq shunchalar.


To'tiyi shirin suxan ag'yorlarning bazmida,  
Bizga kelganda gapirmay zor qilmoq shunchalar.

Sizga kim aydi: muhabbat ahlini qil ihtisob,  
Qo'rqtib o'z aybiga iqror qilmoq shunchalar.

Kelsa oldingizga boy suvrat, yaqosi tugmalik,  
Izzat ila shod-u minnatdor qilmoq shunchalar.

Garchi kelsa eski to'n, bizdek duogo'yi faqir,  
Kambag'alning xirqasidin or qilmoq shunchalar.

Har balo-yu jabr kelsa yonmagay hargiz Muqim,  
Oshiq ahlini urubon xor qilmoq shunchalar.



## **ANOR**

Ne'mat ichra xush latofatlikda mustasno anor,  
«Qoy» agar hikmatda derlar qotii safro anor.

Me'dani pokiza aylab, ishtahoni kelturub,  
Ko'p g'izo qilg'anni qilg'ay rangini humro anor.


Achchig'ida xosiyat ko'pdur, havosida xusus,  
Bo'lsa shirin tashnalik daf'igadir tanho anor.

Gar yesang forom har bir dona chun la'li xushob,  
Bog'ida sun'i ilohi mevai g'atmo anor.

Bor masalkim: yaxshi odam der edim, o'zi bilur,  
Yo'qsa aylardim qachon sizlarga men da'vo anor.

Xaltasi birlan yuboring gohi-gohi lutf etib,  
Bo'yla kelganda Namangan shahridin savg'o anor.

Nogahon o'rtab yurak turganda keltirdi o'g'ul,  
Shodlig'imdin, deb yuboribmen, Muqimiyl, yo anor!



## **RA'NOLIG'ING BORDUR**

Eram gulzordin har vajhdin ra'nolig'ing bordur,  
G'araz lutf-u nazokatda chaman orolig'ing bordur.

Kaloming jonfizoyekim, takallum aylasang shirin,  
Jahon to'tilarining oldida go'yolig'ing bordur.


Bu gulshan gullari birlan ochishsang nogahon ruxsor,  
Ruunat avjida har bobdin humrolig'ing bordur.

Ramaqqa yetsa ham noz-u tag'oful ishlaring jonlar,  
Nigoro, saxt oshiqlarga beparvolig'ing bordur.

Xaloyiq ichrakim qo'zg'aldi mundog' fitnalar bois,  
O'zingni ham bir oz lekin ko'ngul orolig'ing bordur.

Agar za'fimni rangimdin qiyos etsang bo'lur baskim,  
Bayon darkor emas aql-u xirad donolig'ing bordur.

Nachuk ko'nglum, Muqimiyl, kuymasin rashk o'tig'a oxir,  
Qolib oshnolarining begonag'a oshnolig'ing bordur.



## **OSHIQI HAYRONLARING BORDUR**

Ajoyib jilva birlan, dilbaro, javlonlaring bordur,  
Xiromingga aning-chun oshiqi hayronlaring bordur.

Boqib mardumni bismil aylamakka tig‘ emas hojat,  
Kamon abro‘ otarg‘a novaki mujgonlaring bordur.


Hamisha gul yuzing shavqida chun bulbul navo qildim,  
Demassan menga mundog‘ nola-yu afg‘onlaring bordur.

Labingdin kom baxshishlar magarkim va‘da aylarsan,  
Nihoniy shum raqibg‘ ahd ila paymonlaring bordur.

Xush o‘lmas xotirim bog‘larni sayri birla bo‘lsang bas,  
Ruxing – gul, zulflardin sunbul-u rayhonlaring bordur.

Ochib ruxsorini bir necha ko‘rmay borasan vaslin,  
Bu to‘g‘ridin, netoyin, ey ko‘ngul, armonlaring bordur.

Navo birlan Muqimiyl she‘r ravshanroq eshitkanga,  
Qilib yod o‘qusa bazmingda ham xushxonlaring bordur.



## **INSON BO'LDIMU**

Ilm o‘qug‘oni bilan har kim musulmon bo‘ldimu?  
Mouman aylab farishta g‘ayri shayton bo‘ldimu?

Shikvalar aylab tuz ichkon yerlaringizni mudom,  
Yo magar posi namak tutmog‘liq oson bo‘ldimu?


She’ringizg‘a xalq tolib bo‘lsalar so‘ngra o‘qing,  
Yo kelib ahbob kar bo‘lmakka mehmon bo‘ldimu?

Kimki muhmaldur o‘zi ham o‘zgani muhmal bilur,  
Qilsangiz g‘ayra atoye derki, ehson bo‘ldimu?

Buzda rish, eshshakda jon, to‘ti gapurgoni bilan,  
Ey afandim, sizga ul albatta inson bo‘ldimu?

Suhbat ahlig‘a qilolmay ul kecha izhori fazl,  
Fazlingizni paxtasi ham yoki arzon bo‘ldimu?

Bo‘limgay hosil, Muqimiyl, ma’niye har lafzdin,  
Dona sochqon birla har qishloqi dehqon bo‘ldimu?



## **KEL ERTAROQ**

Dilbaro, ta'xir qilmasdin bir on kel ertaroq,  
Muntazir bo'lmakka yo'q jism ichra jon, kel ertaroq.

Gar bu oqshom to sahar san birla taskin topmasam,  
Ishq o'tiga kuydi mag'zi ustixon, kel ertaroq.


Siynalar afgor hijroning bilan, boz ustig'a  
Xanjari noz birla qilmay imtihon, kel ertaroq.

Hojat ermas o'zga shamshir istamak qatlim uchun,  
O'q otarg'a ki prizing abro' kamon, kel ertaroq.

Kecha-yu kunduz visoling orzusinda umr o'tib,  
Fe'l-u atvoringni sog'indim yomon, kel ertaroq.

O'zgalar nomehribonlig' birla tashlab ketdilar,  
Boshing haqqi sen bo'lubon mehribon kel ertaroq.

Eshitib hasrat Muqimiydin, nigoro, bu kecha  
Garm suhbat birla to vaqtি azon kel ertaroq.



## OHISTA-OHISTA

Nazardin ketting, ey xurshid uzor, ohista-ohista,  
Nachuk bas tiyra bo'lmas ro'zg'or ohista-ohista.

Sanovbar qomato, bo'lmasdin avval oshno, bilsam,  
Bo'larkanman ko'rarga muncha zor ohista-ohista.

Ravo ko'rma tarab zul fingni beparvo el ozorin –  
Ki har bir torida jon beshumor ohista-ohista.

O'yunda rashkdin kokillaringdin nega tebranmay,  
Tegar ruxsoringga oltun tumor ohista-ohista.


Darig'o, royon mehr-u muhabbat qo'ymish erkanman,  
Yo'lingda qilding oxir intizor ohista-ohista.

Yuzung ko'rmakka doim muntazir nargis bila gulzor,  
Xirom et bog' aro tovusvor ohista-ohista.

Xayol etsam visoling sog'inib hushum ketib boshdin,  
Oqar qon yosh ko'zdimdin shashqator ohista-ohista.

Asir etmas qayu bir fe'l-u atvoring xususankim,  
Olib ilkingga chalganda dutor ohista-ohista.

Nega asrab nihon tuttimki, hargiz bo'ljadi, naylay,  
Bo'lurkan ishq sirri oshkor ohista-ohista.



## O'RGULSUN QULING

Ol yuzingdin parda, diydoringdin o'rgulsun quling,  
Hur yanglig' fe'l-u atvoringdin o'rgulsun quling.

Boshlaringdin o'rgulub yuz shavq ila parvonalar,  
Bazmlarda sham'i ruxsoringdin o'rgulsun quling.


Ko'zlarin ovorasi umre g'azoli Chin bo'lub,  
Nofa zulfi anbarin boringdin o'rgulsun quling.

Bulbuli sho'ridai bebol-u parman ayrilib,  
Ochilib o'Iturki, gulzoringdin o'rgulsun quling.

Qil yurish, kabki dari bo'lsun xiroming sadqasi,  
Xush takallum to'ti guftoringdin o'rgulsun quling.

Lablaringni rashkidin la'li Badaxshondur xijil,  
Tishlaringmu durri shahvoringdin o'rgulsun quling.

Zori dil noahllarg'a qilmog'il fosh, ey Muqim,  
Bulhavaslar sirri asroringdin o'rgulsun quling.



## **KO'ZLARING**

Surma qo'y may muncha ham, jono, qarodur ko'zlarin,  
Har bir jon qasdig'a boqqan balodur ko'zlarin.

Oshno begonalarga, bir umr xush-xush nigoh,  
Oshnolarga g'araz nooshnodur ko'zlarin.


Boqmag'ay oshiqqa sahvan ham qiyo, faryodkim,  
Rasmu oyini magar javr-u jafodur ko'zlarin.

Ohuyi Chin ko'rди-yu shahlolig'idin qon yutub,  
Rashkdin ovorai dashti Xitodur ko'zlarin.

Nargisi mastingdin uzmak mumkin ermas diydani,  
Yoki mujgon davrida mehrigiyodur ko'zlarin.

Intizor aylab o'zi ham, ajrig'a oyinasi,  
O'z jamolini ko'rolmasdin adodur ko'zlarin.

Qumri sarvi qaddu, bulbul gul yuzingning volasi,  
Men Muqimiya hamisha muddaodur ko'zlarin.



## **NAZOKAT BOG'IDA**

Ey, nazokat bog'ida ra'nolig'ingdin o'rgulay,  
Surma qo'ymay ko'zлari shahlolig'ingdin o'rgulay.


Chok-chok aylab giribon gul, degay beixtiyor,  
Chehrai oling ko'rib humrolig'ingdin o'rgulay.

Yuz tarafdin dod-u faryod etsa ham oshiqlari,  
Hech boqmas sho'xi beparvolig'ingdin o'rgulay.

Xandalar, shirin tabassumlar bilan har yon boqib,  
Alg'araz bir qamchi bazm orolig'ingdin o'rgulay.

«Oh o'ldum» ham desangkim zarra bovar qilmagan,  
Sangdil, qattiq ko'ngul, xorolig'ingdin o'rgulay.

Nogahon ko'rsang Muqimiyni tag'ofillar qilib,  
Doimo begonadek oshnolig'ingdin o'rgulay.



## **YO‘Q DILRABOYE SAN KABI**

Jilvasi g‘oyat xirad, yo‘q dilraboye san kabi,  
Sarvdek mavzun qad-u gulgun qaboye san kabi.


Bora-bora oshnoi jonsiporidin kechib,  
Ko‘rmadim begonaparvar oshnoye san kabi.

Oh urub qumri bilan to‘ti chamanlarda degay,  
Xush takallum bormukin shirin adoye san kabi.

Rahmsiz jallod ikki ko‘zlarin jon qasdig‘a,  
Kam erur, insof qilsang, purjafoye san kabi.

Xush kechar umri qachon bir zarrai armoni bor,  
Har kishini bo‘lsa mahbubi kiroyi san kabi...

Nogahon marjonidin durlar agar tersam, Muqim,  
Chiqmagay juz vasfi sho‘xi bevafoye san kabi.



## **ORAZINGNI NAMOYON QIL**

Orazingni, ey mahvash, bog‘ aro namoyon qil,  
Lola ko‘ksini dog‘ et, g‘uncha bag‘rini qon qil.


Ko‘rsatib banogohi qoshlaringni mehrobin,  
Shuncha yilg‘i zohidni zuhdidin pushaymon qil.

Har taraf chamanlarda lof urar xiromig‘a,  
Kabk to xijil bo‘lsun, jilva birla javlon qil.

Man ham o‘zgaga, jono, yor bo‘lmayin emdi,  
Bas, inong‘udek san ham ahd birla paymon qil.

Hajr aro qolib sansiz, saxt xastamen — bemor,  
Bir so‘rab kelib nogoh, dardlarga darmon qil.

Husnni zakoti-chun tobakay rivoj topsun,  
Har mahal Muqimiyg‘a bo‘sса narxin arzon qil.



## **O'YNAYLIK, KULAYLIK**

Ey yaxshilar, kelaylik, bir joyga yig'ilaylik,  
O'ynaylik, kulaylik, omon bo'laylik.

Bu umr ekan baqosiz, dunyoyi dun vafosiz,  
O'ynaylik, kulaylik, omon bo'laylik.

Xush kechgan dam g'animat, ko'p chekma ranji zahmat,  
O'ynaylik, kulaylik, omon bo'laylik.

G'amdin qurib majolim, yo'q emdi zarra holim,  
O'ynaylik, kulaylik, omon bo'laylik.

Xalloq bandaparvar, qo'y, qilma vahmi mahshar,  
O'ynaylik, kulaylik, omon bo'laylik.

Jo'sh ursa bahri rahmat, jurming tamomi tuhmat,  
O'ynaylik, kulaylik, omon bo'laylik.

Gulbog'larda xurram borib tur, emdi biz ham  
O'ynaylik, kulaylik, omon bo'laylik.

Ol pardani yuzingdin, yur, o'rgulay ko'zingdin,  
O'ynaylik, kulaylik, omon bo'laylik.

Ey sho'x, ushlashib qo'l, kelsangchi toki bir yo'l,  
O'ynaylik, kulaylik, omon bo'laylik.

Aylab g'ammingda giryon, tutting demayki, ey jon,  
O'ynaylik, kulaylik, omon bo'laylik.

Yig'lab Muqimiy tokay topmas murodi, naylay,  
O'ynaylik, kulaylik, omon bo'laylik.

## **ZOR AYLADING SEN HAM**

Nigoro, bir ko'rarga oqibat zor aylading sen ham,  
Desam zaxmimg'a marham, jonima kor aylading sen ham.


Ko'ngul qon o'lgani etmasmudi boz ustig'a oxir,  
Bu yanglig' intizor-u diyda xunbor aylading sen ham.

Chekar tovus oh-u nola aylar kabk rashkidin,  
Magar javlon qilib bog'larda raftor aylading sen ham.

Qo'limdin ixtiyorim ketdi bir dam, qolmadi orom,  
Parilardek qachonkim fe'l-u atvor aylading sen ham.

Chekib javr-u jafolar, sho'xlardin kammu ta'zirim,  
Ki, yakbora osarg'a begunah dor aylading sen ham.

Muqimiy, qaysi gul ishqida mundog' o'tlu bulbuldek  
Fig'on qilding, kuyub faryodi bisyor aylading sen ham.



## **BEPARVOLIG‘INGDIN DOG‘MEN**

Ohkim, begonaga oshnolig‘ingdin dog‘men,  
Oshnoga, ya’ni beparvolig‘ingdin dog‘men.

Oshiqa aylab itob-u noz-u istig‘no mudom,  
So‘rmagan bir yo‘l ko‘ngul xorolig‘ingdin dog‘men.


Zulm harfidin bo‘lakni bitmagan azro‘yi lutf,  
Xat chiqorib yaxshi, xush imlolig‘ingdin dog‘men...

Mardumi puldor birlan uns-u ulfat subh-u shom,  
Faqr ahlidin hazar, donolig‘ingdin dog‘men.

Xo‘bro‘lar ko‘pdur, ammo vajhida badginalig‘,  
Misli kam Farg‘onada tanholig‘ingdin dog‘men.

O‘rtanurmen tushsa yodimga xayoli orazing,  
Husn bog‘ida ko‘rub ra’nolig‘ingdin dog‘men.

Nola-u ohingni gulruxlar eshitmas garchikim,  
Ey Muqimiy, bulbuli go‘yolig‘ingdin dog‘men.



## BORMUKIN

Bog‘ aro ham sen kabi sarvi xiromon bormukin,  
Yuzlari – gul, sochi – sunbul, zulfi rayhon bormukin?


Hur paykar, to‘tidek shirin takallum, xushsuxan,  
Tishlari – dur, lablari la’li Badaxshon bormukin?

Bu sifat mehrobi abro‘ying ko‘rub beixtiyor,  
Bosh egib hozir sukul etmas musulmon bormukin?

Necha ko‘z tutdim yo‘lida, qildi kelmay intizor,  
Do‘srlar, vaslini ko‘rganlarda armon bormukin?

Ey hakimi muddayi, qilg‘il javobi bosavob,  
Ishqning dardig‘a ham doru-yu darmon bormukin?

O‘zgalar har kun, Muqimiy, komyobi bazmi vasl,  
Senga ham bore nigoh-u lutf-u ehson bormukin?



## QILMASUN

Yor agar lutf aylamas, jabr-u jafo ham qilmasun,  
Qilmas ersa manga, g‘ayrig‘a vafo ham qilmasun.

Sunbuli zulfi kabi oshufta aylab har nafas,  
Kokilidek ro‘zg‘orimni qaro ham qilmasun.

Gar eshitmas bo‘lsa bog‘larda fig‘on-u nolasin,  
Gul yuzin ko‘rsatmasun, bulbul navo ham qilmasun.

Dardim ishqida kuni-kundin fuzunroq bilmasa,  
Bir musulmonni o‘zig‘a mubtalo ham qilmasun.


Yig‘lamoqdin xiyra bo‘ldi ko‘z, demish faryodkim,  
Ko‘zga boskan izlarimni to‘tiyo ham qilmasun.

Quchmasam nozik belidin bir yo‘l oxir muncha ham,  
Qomatimni g‘am yuki birla duto ham qilmasun.

Gar kafi poyig‘a qo‘ymoqg‘a munosib ko‘rmasa,  
Yig‘latib ko‘z yoshimi rangi xino ham qilmasun.

Yakka bir oqshom kelib vaslini gar ko‘rsatmasa,  
Rang-u ro‘yimni bu yanglig‘ kahrabo ham qilmasun.

Kelmasa ko‘ngul so‘rab gohe, Muqim, ag‘yorsiz,  
Bo‘yla avval ishq o‘tin dillarg‘a jo ham qilmasun.



## **AYRILMASUN**

Hech kim mendek ilohi yoridan ayrilmasun,  
Mehribon, munis o'shal dildoridin ayrilmasun.


Xonumonlarni berib barbod, yetmay vaslig'a,  
Bo'lubon ma'yus yo'q-u boridin ayrilmasun.

Hajr osebi xazonida bo'lib sho'ridahol,  
Andalebe men kabi gulzoridin ayrilmasun.

Qosido, ko'nglum qushi band erdi, ayg'il zinhor,  
Ishqilibkim zulfi anbarboridin ayrilmasun.

Do'stlar, ko'rsatmasun hargiz judolik dardini,  
Dushmaning ham bo'lsa o'z g'amxoridin ayrilmasun.

Bandaye, yorab, Muqimiydek bo'lib xor-u kasod,  
Sud-u savdodin qolib, bozoridin ayrilmasun.



## O'XSHAMAS

Ey munavvar, orazingga mohi tobon o'xshamas,  
Mardumiga ko'zlarin Mirrix-u Cho'lpox o'xshamas.

Yuzlaring ko'rgach safosin xoki xijlatlar bilan,  
Oynag'a sayqal berib o'zig'a hayron o'xshamas.

Rost bilsang shulki, jono, to bo'lubman oshno,  
Furqatingga — do'zax-u vaslingga — ruzvon o'xshamas.

Ko'zlarin ga ohui Chin, sochlaringga mushki Chin,  
Dur — tishingga, la'lingga la'li Badaxshon o'xshamas.


Ulki raftoring ko'ruba, tovus bog'larda yurub,  
Aylagay taqlid etib harchand javlon, o'xshamas.

Sho'xi beboke bo'lak hojat emas qatlim uchun,  
Isfahoni qoshinga shamshiri burron o'xshamas.

Xo'blig'da ko'p yoron, ammo barobar kelmagay  
Sanga, ko'rdimkim, ukang ham bo'lsa chandon o'xshamas.

Aylamas mehrobi abro'ying ko'rib, ulkim namoz,  
Hech mazhabda o'zin olsa musulmon o'xshamas.

Nogahon har she'rimi bir-bir agar olsang, Muqim,  
Nazmi vasfing chiqmasa yolg'on-u yolg'on o'xshamas.



## XAYRIYAT

Jon ramaqqa kelgan erdi, keldi yorim, xayriyat,  
Topdi jon dubora bu jismi figorim, xayriyat.

Orzular g‘unchasi hargiz ochilmas, der edim,  
Chiqdi hijron chillasi, keldi bahorim, xayriyat.

Bul kecha bir oh urdim gul yuzingni shavqida,  
Dahrni kuydirmadi o‘tliq sharorim, xayriyat.

Necha kun bo‘lmishki, vaslidin yiroq tashlab edi,  
Sog‘inib yo‘qlab kelibdur gul’uzorim, xayriyat.


Xira erdi sham’i umrim shomi hijroni bilan,  
Ravshan o‘ldi oy yuzidin ro‘zg‘orim, xayriyat.

Aql ila hushimni olib ketti yodidin chiqib,  
Qoldi o‘xshaydir magar sabr-u qarorim, xayriyat.

Tog‘larni g‘arq etib seli sirishkim, yiymadi,  
Ko‘k binosin ikki chashmi ashkborim, xayriyat.

Va’da qilmay qat’i ummid aylasa neylar edim,  
Termulib yo‘lida chashmi intizoram, xayriyat.

Ul kunekim bir nigoh qilding Muqiming sorig‘a,  
Afzun o‘ldi misli gavhar e’tiborim, xayriyat.



## **ORZU**

Fikrimiz bog‘idin unmas juz niholi orzu,  
Mahfili ahbob-u sham’-u qiylyqoli orzu.

Vasfi husni qaysi kun payg‘omdin mafshum o‘lub,  
Bo‘ldi biz aftodalarg‘a parr-u boli orzu.

La’limu yo bargi gul, shahd-u shakar yo labmidur,  
Chunki zikridin erur shirin maqoli orzu.


Orzu birlan qolay to chand hijron shomida,  
Vah qachon yorab tulu’ etkay hiloli orzu.

Davlatim sarvi qadig‘a qumri bo‘ldim tavqdor,  
Voy ulkim tashna-yu, obi ziloli orzu.

XokSORINI sarafroz etsa naylar lutf ila,  
Ishtiyoqida erurman poymoli orzu.

Oy yuzig‘a ko‘z tushib, borsak munavvar bo‘lmasa,  
Qonga to‘ldi yig‘lay-yig‘lay az kamoli orzu.

Naqsh qildi xotami nazmig‘a (vasfin durrini),  
Ot chiqarsun deb, Muqim, sohib jamoli orzu.



## BIR MENMU

Asiri chashming ohuyi biyobon o'ldi, bir menmu?  
Ko'rib oina ham husningga hayron o'ldi, bir menmu?

Rux ochding pardadin ul subhidamkim, sayri bog' aylab,  
Qolib xijlatda gul choki giribon o'ldi, bir menmu?


Kuyar jismim na tanho ishqing o'tidinki, sahroda  
Tushub o't, lolalar ham jumla so'zon o'ldi, bir menmu?

Na yolg'iz men xarobi halqai zulf-u xat-u xoling  
Labingga banda ham la'li Badahshon o'ldi, bir menmu?

Ko'yingda telba-yu devonadek yurganda ayb ermas,  
Sochingdin sunbul-u rayhon parishon o'ldi, bir menmu?

Ko'rib ramzi tabassum, bu erur deb husni Yusuflar  
Giriftori o'shal chohi zanaxdon o'ldi, bir menmu?

Visoling lazzatidin mazzalar topgan hariflar ham,  
Kelib oylar, Muqimiyy, Yangiqo'rg'on o'ldi, bir menmu?



## **JAHON BOG'IDA**

Jahon bog'ida ham gulgun qabolar bor ekan mundog',  
Olib ko'nglunni so'rmas dilrabolar bor ekan mundog'.

Ne nuqs husnig'akim o'tkanda deb o'tsa xayolida,  
Yo'lumda rang-u ro'yi kahrabolar bor ekan mundog'.

Qachon tutkay edim, ahboblar, gulchehralar nomin,  
Agar bilsam edi javr-u jafolar bor ekan mundog'?!

Necha so'zi dil izhor aylasangiz, qilmagay parvo,  
Asarsiz, mustajob o'lmas duolar bor ekan mundog'.

Ko'runub ishq oson, boshlarimg'a tushdi bildimkim,  
Judolig'da qiyomat mojarolar bor ekan mundog'.

— Mashaqqatlar chekib hajrimda ne kechdi, — demas,  
— holi,  
Yamon begonadin ham oshnolar bor ekan mundog'.

Muqimiy, nega afgor o'lmasun ko'nglung, nishon aylab,  
Otarg'a tiyri mujgon qoshi yolar bor ekan mundog'.





**YUZNI OYDEK**

Yuzni oydek nogah tobon aylading,  
Chun oyina mahv-u hayron aylading,  
Oshiqlarga ro'zi hijron aylading,  
Ag'yorimga vasling arzon aylading.

Va'da yuz yo'l, birga vafo qilmading,  
Xush bo'lmadi ko'nglung jafo qilmading,  
Dardim bilib turib davo qilmading,  
Qilmas ishni hech musulmon aylading.

Lola kabi yashnab chiqsang mastona,  
Ko'rgan odam nachuk bo'lmas devona,  
Xalq ichida qilib mundog' afsona,  
Ovorai pur besomon aylading.

Dilrabolar xaylida, ey tojdar,  
Qani sendek endi sarvi gul'uzor,  
Shamshir aylab qoshlarining obdor,  
Qatlim uchun muncha burron aylading.

Ey chehrasi qamardin ham munavvar,  
Labing la'l-u tishing safoda gavhar,  
Solib boshga netib g'avg'oyi mahshar,  
Pari yanglig' o'zni pinhon aylading...

Xo'blarning ey sarvari sariri,  
Husn taxti uzra odil amiri,  
Men benavo qolib mahrum axiri,  
Bo'laklarga lutf-u ehson aylading.

Oh-u nolam yetdi yetti samoga,  
Boqmay o'tting hargiz men mubtaloga,  
Faryod etdim, Muqim, o'xshab gadoga,  
Bir demading: kimsan, afg'on aylading?

## **OSHNOLIG'ING YODIMGA TUSHTI**

Arzim eshit, ayo, sarvi ravanom,  
Hajr o'tig'a kuyub o'rtandi jonim,  
Nogah oyinag'a boqtimki, xonim,  
Mahvi hayroningiz yodimga tushti.

Bog'da ko'rib har yon ochilgan gullar,  
Farshi maxmal yerda sabza sunbullar,  
Sunbul isi xush aylabon ko'ngullar,  
Zulfi rayhoningiz yodimga tushti.

Ilkingizdin no'sh aylayub paymona,  
Gohe hudman, gohe behud devona,  
Har qachonkim ko'ksim qildim nishona,  
Tiyri mujgoningiz yodimga tushti.

Ey sarvari mahbublar, ra'nolar,  
Bo'ldi afzun boshda sho'r-u savdolar,  
Bismil xayol aylab guli humrolar,  
Tiyg'i parroningiz yodimga tushti.

Tufrog'idur mazallatlar maskanim,  
Notavonlig' pesham, ojizlig' fanim,  
Qasd aylasa qaysi yerda dushmanim,  
Manga oshnolig'ing yodimga tushti.

G'aflat bosib oxir sarg'aydi rangim,  
Yo'q darig'o zarra nomus-u nangim,  
Xijolatdan suvg'a tushdim qachonkim,  
Hozir paydolig'ing yodimga tushti.

Ishq o'tig'a kuydim, yondim, tutashtim,  
Vasling istab-istab yo'ldin adashtim,  
Kasratgakim, Muqimiyyo, ko'z ochtim,  
Yo rab, tanholig'ing yodimga tushti.

## **EY CHEHRASI TOBONIM**

Ey chehrasi tobonim,  
Oshiqlari hayronim,  
Yo‘q toqati hijronim,  
Vasl ila davo aylang.

Ey zulfi parishonim,  
Ahdi hama yolg‘onim,  
Sindi, qani paymonim,  
Bir mehr-u vafo aylang.

Ey sho‘xi diloromim,  
Yetsa sanga payg‘omim,  
Kulbamga kelib shomim  
Purnur-u ziyo aylang.

Ey bulbuli sho‘rida,  
Tokay dili afsurda,  
Bo‘lmay dame osuda,  
Gul vaqtি navo aylang.

Bu husn g‘animatdur,  
Chun bod basur’atdur,  
Hangomi muruvvatdur,  
Xo‘b lutf-u saxo aylang.

Oxir meni bemora  
Qil marhami nazzora,  
Kim aytdiki, xushtora  
Yuz javr-u jafo aylang.

Gar qilsa Muqimiш xun,  
Ruxsoralari gulgun,  
Insofga kelur bir kun,  
Haqqiga duo aylang.

## **KO'NGLUM SANDADUR**

Emdi sandek, jono, jonon qaydadur,  
Ko'rib gul yuzingni bog'da bandadur,  
Saqlay ishqing toki jonim tandadur,  
O'zim har joydaman, ko'nglum sandadur.

Mehring o'ti nogah tushdi jonlarga,  
Parvoym yo'q zarra xonumonlarga,  
Lola yanglig' to'lib bag'rim qonlarga,  
O'zim har joydaman, ko'nglum sandadur.

Erta-yu kech fikr-u zikrim xayoling,  
Bir so'rmading: nalar kechti ahvoling?  
Eslarimga tushib shirin maqoling,  
O'zim har joydaman, ko'nglum sandadur.

Voqif ermas kishi sening aslingdin,  
Tokim desam pari sening naslingdin,  
Vodarig'o, judo bo'lqidim vaslingdin,  
O'zim har joydaman, ko'nglum sandadur.

Yo'q san kabi malohatlik yagona,  
Ko'rganmukan misolingni zamona,  
Bo'lib xalq ichida mundog' afsona,  
O'zim har joydaman, ko'nglum sandadur.

Yuzlaringdin xijil mohi tobonlar,  
Raftoringga shaydo jumla yoronlar,  
Qolib har dam o'z ishimga hayronlar,  
O'zim har joydaman, ko'nglum sandadur.

Sultonisan, barcha xo'blar nadiming,  
Doim erdim duogo'ying, qadiming,  
Bovujudi so'rmay o'tting Muqiming,  
O'zim har joydaman, ko'nglum sandadur.



## KASHMIRLIK QIZGA

(*Furqat g'azaliga muxammas*)

Dilbarekim olam istig‘nosidin tashvirda,  
Yo‘q qoshi oldida burrolig‘ dami shamshirda,  
Lol etar shirin takallum to‘tini taqrirda,  
Bir qamar siyemoni ko‘rdim baldai Kashmirda,  
Ko‘zлari masxur-u yuz jodu erur tasxirda.

Qaddi mavzunlig‘da sho‘xekim nazokat intixob,  
Lablari la’li Badahshon, tishlari durri xushob,  
Husn taxtida tahammul pesha-yu ollyjanob,  
Zarra-zarra zar sochar boshig‘a har kun oftob,  
Subh kelgach, kecha yotib chashmai iksirda.


Mast qildi jumlai shoh-u gadoni ishqidin,  
Ayladi devona rind-u porsoni ishqidin,  
Dema g‘oful pashshaye tokim humoni ishqidin,  
Xoli ermas hech kishi ul dirlaboni ishqidin,  
Zulfig‘a dil bastalig‘ har bir javonu pirda.

So‘rma parvozim, par-u bolimni, bo‘lmishman asir,  
Orzu birlan havaslardin qutulmishman asir,  
Goh yig‘lab, goh ahvolimg‘a kulmishman asir,  
Aydin: «Ey jon ofati, zulfigingga bo‘lmishman asir»,  
Dedi: «Bu savdoni qo‘y, umring o‘tar zanjilda».

Mohi tobon matlai anvoridin bir nuqtadur,  
Hur-u g‘ilmon shevasi atvordin bir nuqtadur,  
Jilvai kabki dari raftoridin bir nuqtadur,  
Qoshi o‘rtosida xol asrordin bir nuqtadur,  
Surai nun o‘qidim payvasta har tafsirda.

«Qomating bog‘ ichra yaktodur», dedim, aydi kulub,  
«Oshiqqa vasling tamannodur», dedim, aydi kulub,  
«Xatlaringdin diyda biy nodur», dedim, aydi kulub,  
«Nuqta lab ustida bejodur», dedim, aydi kulub:  
«Sahv qilmish kotibi qudrat magar tahrirda».

Maqdamidin zeb-u oroyish topib sahni chaman,  
Yo‘lig‘a gullar nisor aylib, Muqimi, zar tuman,  
Sochibon nogoh tabassum birla lo‘luyi Adan,  
Aydi: «Ey bechora, qilding na uchun tarki vatan?»  
Man dedim: «G‘urbatda Furqat bor ekan taqdirda».



## KO‘ZLARING

(*Furqat g’azaliga muxammas*)

Gar emas, ey nozparvar, kofiriston ko‘zlarin,  
Nega ikki marduming badmast-u maston ko‘zlarin,  
Aylagay xunrezliqqa harso‘ javlon ko‘zlarin,  
To‘kkali jallod erur ishq ahlidin qon ko‘zlarin,  
Lablaring jonbaxsh-u, ammo ofatijon ko‘zlarin.


Kishvari husni malohat taxtida, ey podshoh,  
Sarv qadlar ichra o‘tmas sen kabi mavzun panoh,  
Naylayin oshuftalig‘din chekmayin har lahza oh.  
Sahl agar bo‘lsa parishon, dillarim qilsang nigoh,  
Qildi ohuni Xo‘tan dashtida sarson ko‘zlarin.

Bir nazar ummidida yo‘lingda ro‘z-u shab yotib,  
Xorlig‘lar xori har uzbimg‘a xorodek botib,  
Ozmidi o‘lg‘onlig‘im zahri g‘ami hijron totib,  
Nogahon oshiqlaringga tiyri mijgonlar otib,  
Raxna dil mulkig‘a soldi nomusulmon ko‘zlarin.

Maqsadingni g‘unchasidin der edingkim, gul qilay,  
Sog‘ari ayshing mayi vaslim bilan purmul qilay,  
Tobakay mundog‘ tag‘oful aylay, emdi qul qilay.  
Bir ishorat birla der erding: boqib bismil qilay,  
Bo‘lmasin ul ahdidin, yo rab, pushaymon ko‘zlarin.

Kelganingda, dirlrabo, nogoh oqshom ketmag‘il,  
Kuydurub kuygan yurak-bag‘rimni biryon etmag‘il,  
So‘rmasang arzimni, dodig‘a raqib ham yetmag‘il,  
Ey nigoro, surmani qo‘y, qo‘yma, qo‘ysang chiqmag‘il,  
Qilmag‘ay oshubi dahr ustiga to‘fon ko‘zlarin.

Necha muddat, kecha-kunduz ko‘rganing ag‘yor edi,  
Bu sababdin har tukum jismimda go‘yo mor edi,  
Shom vaqtidek, Muqimiy, ro‘zgorim tor edi,  
Shukr, Furqat furqatingda xasta-yu bemor edi,  
Bir boqishda ayladi dardig‘a darmon ko‘zlarin.



## **OHKIM, HOLIMNI SO'RMAS OSHNOLARDIN BIRI**

Ey tabib, aylanma, dardim bedavolardin biri,  
Rangi zardim ko'r-u ko'rma kahrabolardin biri,  
Ro'zgorim tiyra, men baxti qarolardin biri,  
Ohkim, holimni so'rmas oshnolardin biri,  
Oshnolar, balki xesh-u aqrabolardin biri.

Nafsi shayton bo'ynima boshlar solib, har yerga g'ul,  
Oxiratdin yo'q g'amim, fikrim hamisha mol-u pul,  
Oqibat bo'ldim yemak-ichmak bila nafsimg'a qul,  
Orzular tuxmidin ya's-u nadomat qildi gul,  
Bo'Imadi afsus hosil muddaolardin biri.


Kettilar hasrat bilan mardum yig'ib dunyo, darig',  
Hirs-u g'aflat pardasi bosib, bo'lib a'mo, darig',  
Dahrdin bir oli himmat bo'Imadi paydo, darig',  
Joh-u qudrat birla xok o'ldi g'aniyalar, vo darig',  
Xayr-u ehsonin ko'ralmay benavolardin biri.

Hech istab topmadim hamdam qilurga sharhi roz,  
Kimga yondoshtimki qo'yub mehr, qildi ehtiroyz,  
Olam ahlin bir-bir etdim imtihon-u imtiyoz,  
Mahfile kim yo'q, nazarda, mutribo, ul dilnavoz,  
Ravshan etmas ko'nglumi zavq-u safolardin biri.

Soch aqordi, tish tushub, quvvat belimdin ketti, hayf,  
Toatim yo'qtur, matoimdur gunoh, yuk bitti, hayf,  
Ayladim zoyi yigitlik, ko'si rixlat yetti, hayf,  
Pur xatar vodiyda sargardon abas umr o'tti, hayf,  
Yig'lamaymu: yo'lg'a solmas rahnamolardin biri?

Ey muhabbat, shu'laye ur dilg'akim, tinmay kuyay,  
Qonlik ashkimdin libosimni qizil guldek bo'yay,  
Fe'libadlarg'a pushaymonlar qilib, yuzni yulay,  
Holati lutf etki, yo rab, ko'z yoshim birlan yuvay,  
Qolmag'uncha nomada jurm-u xatolardin biri.

Sham'dek jonlar kuyub, jism o'rtanur monandi xas,  
Yetkudek dodimg'a ko'rmay boramen faryodras,  
Yo'q asar nolamda, manzillar yiroqdur chun jaras,  
Ishq yo'lida Muqimiyyim, dema, ey bulhavas,  
Shavqida bir sarvqad, qumri navolardin biri.



## **INTIZOR O'LTURGUSI**

*(Furqat g'azaliga muxammas)*

Domi zulfi ichra xoli donavor o'lturgusi,  
Jon qushini mubtalo aylab shikor o'lturgusi,  
Ilkiga olsa xususankim dutor o'lturgusi,  
Kelsa kulbamg'a o'shal berahm yor o'lturgusi,  
Kelmasa, kelguncha dardi intizor o'lturgusi.

Yo'q dilekim hech bir g'amdin mukaddar bo'lmasa,  
Ko'rmadim ko'z hamki motamdin nam-u tar bo'lmasa,  
O'zgalar husnin netay man, ul sumanbar bo'lmasa,  
Davlati diydor gar gohe tuyassar bo'lmasa,  
Mehnati javr-u jafoi ro'zgor o'lturgusi.


Sonma oshiq jabrig'a qilmas tafoxur, ey rafiq,  
Har jafokim etsa bo'l shukriga zokir, ey rafiq,  
Turfa bekas man bu vodiyda musofir, ey rafiq,  
Eyki dersan: o'lg'asan ko'yida oxir, ey rafiq,  
Roziman billoh agar bilsamki yor o'lturgusi.

Yo rab, ul bemehr bemorin kelib so'rmas dame,  
Sangdillig' peshasi insofa kelturmas dame,  
O'zgalardin o'zga manga qo'l tutib yurmas dame,  
O'zni o'ltursam agar man birla o'lturmas dame,  
Doimo ag'yor ila, kelsam, nigor o'lturgusi.

Umr o'tar, yuz hayfkim, hosil qilolmay lahza kom,  
Ro'zgorim tiyra, baxtimdur qaro monandi shom,  
Manga sunsangchi visoling bodasidin emdi jom,  
Bo'ldi korim bori g'am ostida jon uzmak mudom,  
Vahki, har kun mehnati bu kor-u bor o'lturgusi.

Boshdin har dam hushum jodu ko'zing eltur mani,  
Fitnadur anga solursanmu qo'yarsan surmani,  
Ko'p yiroq tushtim nazardin vaslinga yetkur mani,  
Mastman bu kecha, soqiy, lutf ila o'ltur mani,  
Var na qo'ysang tonglaga ranji xumor o'lturgusi.

Yuz yo'la o'tdim ko'yingdin tinmadim el yotgucha,  
Muntazir bo'ldim yo'lingda termulib oy botgucha,  
Ostonangdin netar yursa Muqimiyl sotgucha,  
Bir kecha borg'um diyub har kechalar tong otgucha,  
Furqatiyni aylabon ummidvor o'lturgusi.



## RUXSORINGIZ CHIROYLIK

(*Furqat g'azaliga muxammas*)

Kiyan liboslaringiz, dastoringiz chiroylik,  
Toza matolaringiz, bozoringiz chiroylik,  
Payg'omingiz farahbaxsh, axboringiz chiroylik,  
Jannatni gullaridin gulzoringiz chiroylik,  
Hur-u pari yuzidin ruxsoringiz chiroylik.


Har vajhdin sumanbar, qomatda sarv paykar,  
Insot aylasam yo'q sizdek jahonda dilbar,  
Har necha vasfingizg'a sig'maydi tang daftar,  
Ko'rganda qomatingiz bo'lg'ay xijil sanavbar,  
Tovus jilvasidin raftoringiz chiroylik.

Oydek yetib kamola, ko'rmang zavol hargiz,  
La'li labingiz o'lmas obi zilol hargiz,  
To'ti kamoliningizdin bo'lmasmu lol hargiz,  
Har qancha qilsangiz ham keimas malol hargiz,  
Yaxshi erur jafongiz, ozoringiz chiroylik.

Umre baland bo'lsun iqbol-u davlatingiz,  
Kam bo'lmasun hamisha Doroyi shavkatingiz,  
Gul bog' orazingiz, rayhon erur xatingiz,  
Har bir-biridin ahsan af'ol-u xislatingiz,  
Kirdoringiz yarashkan, atvoringiz chiroylik.

G'ilmonmusiz basharsiz, qaydog'siz o'zingiz,  
Bo'lgaymu muncha issig' yo o'tmu yulduzingiz,  
Jonlar topar halovat, qand-u asal so'zingiz,  
Olma qizil yuzingiz, bodom erur ko'zingiz,  
Ta'rifi anjiringiz, anoringiz chiroylik.

Ey husn kishvarini(ng) taxtida yakka sulton,  
Mumtoz dilrabosiz, chokar jamii xubon,  
Yetmakka vaslingizg'a bormu, Muqimiy, imkon,  
Furqat, ko'rib ko'ngillar bo'lmas nachuk parishon,  
Bellarda kokilingiz, zunnoringiz chiroylik.



## **IXTIYOR ETMAZMIDIM**

*(Fuzuliy g'azaliga muxammas)*

O'lmasa g'am cho'x hasrat ixtisor etmazmidim,  
Toqatim yetsaydi tamkin-u viqor etmazmidim,  
Xush yor o'lsaydi zulmidin firor etmazmidim,  
Aql yor o'lsaydi tarki ishqı yor etmazmidim,  
Ixtiyor o'lsaydi rohat ixtiyor etmazmidim.


Jona yetdim, ey jafojo', zahri hijroning yutub,  
Aylading bing va'da, bo'ldi subh kelmassan gedub,  
O'lturarsan g'ayra, ey soqiy, mayi gulgun dutub,  
Nesha mahram aylading sham'i, bani mahrum edub,  
Ban saning bazmingda jon naqdin nisor etmazmidim.

Dard-u anduh ila ko'ngil ko'zgusi zangordur,  
Siynalar tiyra jafodin xasta ham afgordur,  
Toleim shum, yor bemehr-u falak g'addordur,  
Dardimi olamda pinhon dutdigim nochordur,  
O'g'rasaydim bir hakima oshkor etmazmidim.

Ul ko'zi ofatni kam-kam ko'rmaga o'lsaydi sabr,  
O'zgani vaslina mahram ko'rmaga o'lsaydi sabr,  
Ko'rmayub bir lahza, bir dam ko'rmaga o'lsaydi sabr,  
Yor ila ag'yori hamdam ko'rmaga o'lsaydi sabr,  
Tarki g'urbat aylayub, azmi diyor etmazmidim.

Ishq asrorin bani shaydolig'imdin qil qiyos,  
Umr o'tar g'aflatda, nafs orolig'imdin qil qiyos,  
Saxt gumrahban, dili xorolig'imdin qil qiyos,  
Voizing kufri bani rasvolig'imdin qil qiyos,  
Anda sidq o'lsaydi ban taqvo shior etmazmidim.

Ravshan aylar el ko'zin, yo rab, ko'zimni(ng) mardumi,  
Xo'blar rasmida yo oyini mardumlig' bumi?  
G'amguzorim yo'qki sharh etsam, Muqimiy, dardimi,  
Ey Fuzuliy, dog'i hijron ila yobmish ko'nglumi,  
Lolazor ochsaydi sayri lolazor etmazmidim.



## KIM DESUN

Soyayedurmenki, boqmas oftobim kim desun?  
Bora-bora ketdi qadrim, intixobim kim desun?  
Bir o‘qutmaydur bitib bergen kitobim kim desun?  
Ul tag‘ofulpeshaga holi xarobim kim desun?  
Hajrida mundog‘ meni ko‘rgan azobim kim desun?

Oshnosidin kechib, begonalarga yor yor,  
Bu alamlarga chidolmay ko‘zda yoshim shashqator,  
Hech dushman bo‘lmasun ko‘yida mendek xor-u zor,  
Kunduzi bir yerda bir dam olmay orom-u qaror,  
Lahzaye yo‘q kechalar ko‘zlarda xobim kim desun?

Ko‘rmadimkim, bo‘lmasa boshida mushkul har kishi,  
Qadri ranji xor bu bog‘din uzar gul har kishi,  
Teshani chopqay o‘ziga, rasmdur shul, har kishi,  
O‘z ko‘mochig‘a, masalkim, tortadur kul har kishi,  
Bas, kuyib ishqida chekkan iztirobim kim desun?

Turfa bir maxmurmen la’li labi yoqutig‘a,  
O‘xshatur odam gapursa xush takallum to‘tig‘a,  
Zarra maylim yo‘q bu dunyoning hisob-u cho‘tig‘a,  
Kuymagan bo‘lsa birov mehr-u muhabbat o‘tig‘a,  
Sham’dek to subh o‘rtab tabb-u tobim kim desun?

Topmadim vasliga yo‘l aylab xayol-u o‘ylar,  
Paykarim g‘amdin zaif o‘ldi, chunonchi, mo‘ylar,  
O‘zgalarga xulqi xush, ammo menga badxo‘ylar,  
Hamnishindurlar ulug‘larga xushomadgo‘ylar,  
Yo‘lida jononimi xayr-u savobim kim desun?

Qayda bo‘lg‘ay telba, rasvoda yaqo-yu ostin,  
Ne bilur Majnun degan subh ila shom-u choshtin,  
Naylayin, o‘ylab tiriklikning kami-yu kostin,  
Gar qilich boshimga ham kelsa degayman rostin,  
So‘zki haq bo‘lsa savolimga javobim kim desun?

Demakim, forig‘ duosidin Muqimiy, erta-kech,  
Midhat-u zikr-u sanosidin Muqimiy, erta-kech,  
Ko‘z tutar davlat asosidin Muqimiy, erta-kech,  
Do‘sstar, so‘rmang g‘izosidin Muqimiy, erta-kech,  
Qon sharob ichsam, jigarlardur kabobim, kim desun?





**TANOBCHILAR**

Bo‘ldi taajjub qiziq hangomalar,  
Arz etayin emdi yozib nomalar.

Adl qulog‘ila eshit holimi,  
Zulm qilur, baski, menga zolimi.

O‘n ikki oyda keladur bir tanob,  
O‘zgalara rohat-u menga azob.

Sulton Ali Xo‘ja, Hakimjon ikav,  
Biri xotun, birisi bo‘ldi kuyav.

Ikkalasi bo‘ldi chunon ittifoq,  
Go‘yo xayol aylaki, (qilmay nifoq),

Osh yesalar o‘rtada sarson ilik,  
Xo‘ja – chirog‘ yog‘i, Hakimjon – pilik.

Bir-birisiga solishurlar o‘run,  
Erta-yu kech o‘pushib og‘iz-burun.

Sallalari boshlarida oq savat,  
Ko‘rpacha tagda hama vaqt uch qavat.

Birlari mo‘ltoninamo, hiylagar,  
Birlaridur kundapix-u gavdaxar.

Og‘izlari maqtanib o‘n besh qarish,  
Mayda suxan, ezma (churuk), zanchalish.

Qaysiki qishloqqa tushar otidin,  
Elni yig‘ib, voqif etar zotidin.

Derki: «Ko‘zungga hali kal jo‘jaman,  
Maxtumi a’zamlik o‘zim xo‘jaman.

Bizga bobo hazrati Shohlig‘ mazor,  
Muxlisimiz mardumi ahli diyor.

Ham yana Erhubbi bo‘lodur tag‘o,  
Ammamizing erlaridur Nurato.

Bibi Ubayda bo‘ladur xolamiz,  
Goh kelur erdi kichik bolamiz.

Xizr otamlarga burodar erur,  
Chimlig‘ azizlar menga dodar erur.

Garchiki men olim-u shayxi zamon,  
Qirqingiza emdi beray bir qozon.

Manki tanobingg‘a chiqibman kelib,  
Xizmatimi yaxshi qilinglar bilib.

O‘t qo‘yubon kuyduradurg‘on o‘zim,  
Hokiming-u o‘lduradurg‘on o‘zim.

Xoh tanobingni duchandon qilay,  
Xoh karam birla boshingni silay» .

Xo‘ja so‘zini munga bermay qaror,  
Mardumi sahroyi bo‘lur beqaror.

Derki Hakimjoni – «Ayo oqsoqol,  
Bizni topibsan magaramkim o‘sol?

Hozir etib to‘rt nafar mardikor,  
To‘g‘ri qil oldimg‘a qilibon qator.

Arqonimi yeringa sudrab chiqay,  
Bachchataloq qishloqilarni (uray),

Bir burayin mo‘ylabimni chiqib,  
Tort tanobini jazosi siqib!

Yaxshilig‘ingni fuqaro bilmagay,  
Holi bular ko‘zga bizi ilmagay.

Ikki tanobini qilay o‘n tanob,  
Yurtingizi kuydurub aylay xarob.

Xoh o‘ling, xoh qoling, bachchag‘ar»,  
Debki, uzanguga ayog‘in tirar.

Bir-biriga qishloq eli boqishib,  
Goh uyon, goh buyon chopishib,

Jam’ bo‘lib aylayubon maslahat:  
– «Do‘g‘mag‘a, – der, – bir nima berib jo‘nat».

Aqcha qo‘lida ikki-uch mo‘ysafid,  
Derki: – «Bu nazringiz-u bizlar murid».

Zulm bilan ellig-u yuzni olur,  
Boz tanobini duchandon solur.

Tog‘i bular yaxshi-yu, bizlar yomon,  
El tamizidin hazar et, al‘amon.


\* \* \*

O‘zga yana g‘ussa budurkim, deyin,  
Shunchaki bir qissa bulardan keyin:

Qo‘shti Jalolxon degan o‘g‘lin manga,  
Dedi: «Ruqum o‘rgatadursiz siz anga».

Yukladi o‘g‘lini menga, muxtasar,  
Bu dag‘i ortiqcha (menga dardisar)...

So‘zni, Muqimiy, kerak etmak tamom,  
Mazzasi qolmas uzun o‘lsa kalom.



## **MASKOVCHI BOY TA'RIFIDA**

Hikoyat qilay, turfa davron ekan,  
Xaloyiq hama mahv-u hayron ekan.

Chiqib yangi maskovchidin boylar,  
Sinar o'tmayin ba'zisi oylar.

Xususanki eshoni Hodixo'jam,  
Yo'q og'zida qarzini vahmida nam.

Kerak bersa Maskovga bir laks, qani,  
Bitib va'dai pul, (o'zi mo'ltani).

Der ermishki, o'russa nisfin beray,  
Kelar yilga yarmiga muhlat so'ray.

Qachon bo'lмаган gap qabul aylasin,  
Muqarrar degaykim, pechat boylasin.

Muning ustiga qarzidur Andijon  
Kim, o'z xalqidin – barchadin bu yomon.

Bu ham qirq ming so'm emish, dedi qarz,  
O'tub va'dasi bersalar vaqt farz.

Netarmiz, debon qistamas el pulin,  
– Berurmen, – desa, – so'miga o'n tiyin.

Chunonchi xo'jam, Poshshoxo'jani  
Chu Maskov yuborgan bilan mol qani?

Fabrikantlar va'daga molini  
Berishmay, dedi, yig'lab ahvolini.

Borib mol uchun, mol ololmay kelish  
Yomon, ahli tujjorga mushkul ish.

Olib sulsini aqchasin xo'jayin,  
Berib mol kontorga qildi tayin.

Olay desa, kontorda yo'q bir baqar,  
Desa olmayin, ul zakolat kuyar.

Bu savdo bilan boshida kechqurun,  
Borur ko'he yo orqadin, yo burun.

Qochib ketdi machchoyilar aksari,  
Borib shulki yurtiga ta'kidlari:

— «Saroyeki, o' boshadash, zinhor,  
Daronjo marav memuri, ey tabor»<sup>1</sup>.

Saroy egasi kambag'al Bobojon,  
Ko'rар tojike yo'q, bo'lur toza qon.

Ochilgach kelib ertasi hujrasi,  
Qilur jang-u janjol har ertasi:

— «Ko'tarmakka yuk deb, malay saqlasam,  
O'ziga degay, ishlaturlar akam».

O'risga ijora qo'yib zovutin,  
Borur erdi ishlik bo'lib, chiqti kun.

Chiqib qochdi bir-bir hama mardikor,  
Kupes qoldi bu sirga hayron-u zor.

Topib mardikorini — «Seychas yuring,  
Pojalista, — der edi, — emdi turing».

Dedi: — «Har kun bersang o'n so'm ham,  
Borilmaydi, qo'y zovutini, xo'jam».

Dubora yana bordi bir ishga shul,  
So'kib: «Net, — dedi, — kelma durrak, poshyol!»

---

<sup>1</sup> *Mazmuni*: Agar o'sha tomonlarga borib qolsangizlar, zinhor uning saroyiga (zavodiga) tushmanglar, chunki, ey qadrdonlar, siz u yerdan tirik chiqmaysizlar.

Xo‘qand ichra essizgina havlilar,  
Kelib ikki ming aqchaga sotdilar.

Olur erdi uch-to‘rt mingga, qarang,  
Netar bo‘lsa qarziga o‘lguncha tang?

O‘zi oqshom havlisida, har kimi  
Ko‘rar keldi eshon, qochar odami.

Agar borsalar qaysi hammomga,  
Chiqar xodimiyalar qochib tomga.

Sabab so‘rdi hammomchi qochqonidin,  
Dedilarki: «Biz kechtuk ehsonidin...»

Berib arza ma’murga: «Ey hokimim,  
– Dedi, – bor to‘qqiz yuz oltmisht so‘mim».

Olib buyruq otig‘a Xayrullaxon,  
Shariatga qamtu o‘turgan zamon,

Kelib qoldi o‘ziga nogah qasam,  
Sariq bo‘ldi yolg‘onlig‘i muttaham.

Qizini olib go‘rkavi sho‘rlik,  
Turushlik tushib, bo‘lmadi jo‘rlik...

Dedi oh urib: «Bo‘lsa er holi bu»,  
Fig‘onidin el ichra tushdi g‘ulu.

– «Darig‘oki, baxtim qaro bo‘lmasa,  
Senga tushmas erdim, xudo urmasa».


Chiqib ichlarida nihon qotishib,  
Bazo‘r qo‘ydi hamsoyalar bosishib.

Vale rastada savlatin ko‘rsangiz  
Kim, arziydi shayxi zamon bilsangiz.

Ot ustida mardum qilurlar gumon,  
Mudarrislari «Beg»ni, deb Tosh eshon.

Amoma boshida, safid jomalar,  
Xayol aylagaysizki allomalar.

Qilib muxtasar, so‘zni qildim tamom,  
Malolovar o‘lg‘ay cho‘zilgan kalom.



## AXTARING

Podshoh yo'qlatsalar nogah, gado deb axtaring,  
Tutma hargiz nomimi, baxti qaro, deb axtaring.

Kimsa bilmaydur mani, nom-u nasab qilsang bayon,  
Lola yanglig' dog'i g'amga mubtalo, deb axtaring.

Layli topg'il, desalar, Majnuni sargardonini(ng),  
Ko'zlarining yoshidur rangi xino, deb axtaring.

Istagan chog'da topay deb, bo'lsa ko'ngilda xayol,  
Qomatidur bori mehnatdin dueto, deb axtaring.


Hajr vodiyisida kezgay doimokim xo'blar,  
Xoki poyidur ko'ziga to'tiyo, deb axtaring.

Bir shakarlab, zulmparvar hasratidan, do'stlar,  
Umrlar umri charog'i beziyo, deb axtaring.

Dahr zulmidin sirishki tinmay oqib, aylanur  
Charx javridin boshida osiyo, deb axtaring.

Tolii shum, vojgun baxt-u g'izosi dard-u g'am,  
Notavon mo'ri zaifdin benavo, deb axtaring.

Yor vaslig'a yetolmay qolmish ul kunkim Muqim,  
Ushbu boisdin o'lumig'a rizo, deb axtaring.



## HAPALAK QISHLOG‘I TO‘G‘RISIDA

(*Maxmur g‘azaliga muxammas*)

Ko‘rdi sandek shahi odilni na ins-u na malak,  
Arraning zulmidin emin hama bog‘-u chakalak,  
Yangi oy ko‘ziga xasmingni oturg‘a kamalak,  
Ey jahondori zafar kavkabai davri falak,  
Eshiting qissai qishlog‘i xarobi Hapalak.

Gajdum-u ofi-yu biy, o‘tlasa charrandalari,  
Bir gala mo‘r-u malax, bo‘ri-yu darrandalari,  
O‘ldurur chaqsa mabodo kana, gazandalari,  
Turfa qishloq, jin urgan oni parrandalari,  
Tovug‘i — ignachi-yu, o‘rdag-u g‘ozi — kapalak.

Chug‘zi vayrona teshik, uylari so‘roxi kamar,  
G‘iji-bij tulki-yu kirpitikon-u echkiemar,  
O‘tga qo‘sninga chiqib, bir kechasi yo‘lda tunar,  
Tepaga chiqsa kishi, unda-yu munda ko‘rinar:  
Bir kapa, ikki kapa, uch olochiq, to‘rt katalak.


Chopishur yantog‘ o‘tun mard-u zan issiqda kuyub,  
Yer zag‘ora nonini, topsa otin qand qo‘yub,  
Jazi yo‘q sho‘rva kadu yeydugan oshida suyub,  
Ajiriq ildizini mayda kelilarda tuyub,  
Qaynatib, kunda ichib, otini derlar sumalak.

Otlari log‘ar-u qoqi-yu xarobi-yu xarish,  
Rahm qilmay minadur, ikki qadam javr minish,  
Ochilur og‘zi desangiz-da vuz-u g‘o‘sl qilish,  
Cho‘l, yo‘q qatrai suv, katta-kichik, yoz-u qish,  
Qo‘lini qumga yuvib (ortiga) surtar guvalak.

Ko'rpacha tagda qomish, boshlarida bolish uvot,  
Nar-u moda aralash, bilmas alar ayb-u uyot,  
Soqov-u gung so'fi, yo'qtur imomida savod,  
Masjidi yerto'la, bir eski qorong'i zulumot,  
Ko'r qilur ko'zga urub kirsa kishi ko'rshapalak.

Ko'cthi xalqi yopinib ko'hna, uvoda to'nini,  
Charxdin o'tkarishib oh-u fig'on-u unini,  
Solmasun dushmana ham boshiga kelgan kunini,  
Kecha nogah eshitib shuhrati tillo pulini,  
Hapalak qo'rqishidin uchti misoli kapalak.

Bo'lsa ul xisravi Jam joh karamdin ne ajab,  
Fuqaro holidin ogoh, karamdin ne ajab,  
Ham Muqimin so'rasha, goh karamdin ne ajab,  
Kecha Maxmuri uchun shoh karamdin ne ajab,  
Hapalak yurtig'a tushgan pul agarchi lak-lak.



## DARIG‘O, MULKIMIZ...

Darig‘o, mulkimizning sohibi ahli sharor o‘lmish,  
Shariat hukmi qozilar qo‘lida pur g‘ubor o‘lmish,  
Ba joyi amri ma’ruf, kori munkar oshkor o‘lmish,  
Hakim-u olim-u sohib fasohat xor-u zor o‘lmish,  
Bu kunda kimki imonin sotar ul e’tbor o‘lmish.


Zamona ahlini bir xayli bordur hayf insonliq,  
Shul insofi bilan ul aylagay da’vo musulmonliq,  
Birovga hiyla-yu makr aylayur, af’oli shaytonliq,  
Bo‘lur xursand o‘z qilg‘on ishiga buyla nodonliq,  
Berib qiz keksa boyga faxr ila xesh-u tabor o‘lmish.

Hama modar zinolar hamnishini qoziyul islom,  
Rasolar bo‘ldilar tortib o‘zin har go‘sada gumnom,  
Tun-u kun fisqning yo‘lig‘a nodon quydilar iqdom,  
Buningdek qo‘rqaman, do‘stlarki, badtar bo‘limg‘ay  
ayyom,  
Nechunkim maslahatdoni zamon ahli qimor o‘lmish.

Hazor afsuskim, ilm ahlig‘a bir zarra izzat yo‘q,  
G‘aniylarda saxovatdin asar, xayr ila himmat yo‘q,  
Xiradmand ahli donishlarda ham qadr ila qiymat yo‘q,  
Faqr ahlig‘a mardumlarda ehson-u muruvvat yo‘q,  
Baxil-u ko‘r kabi el ko‘ngli ham torik-u tor o‘lmish.

Bo‘za, xamr-u musallas bo‘zagardan tark bo‘lmaydur,  
Xaloyiqlar hujum aylab eshidigin uzulmaydur,  
Xumini katta odamzodlar kelguncha buzmaydur,  
Xaloyiq... o‘zgani manzur qilmaydur,  
Mahalli fisqi mardumlar qadam joyi mazor o‘lmish.

Ketardim bosh olib gar bo'lsa erdi, ro'zgorim yo'q,  
Netay, bezodi to'sha yo'lga yurmakka madorim yo'q,  
Turarga qolmadi toqat, ko'ngulda ixtiyorim yo'q,  
O'zingdin o'zga, yo rab, rahbari layl-u nahorim yo'q,  
Hidoyat aylagaymu deb Muqiming intizor o'lmish.



## **VOQIAI VIKTOR**

Eshit, turfa so‘zlar hikoyat qilay,  
Hikoyat agarchi shikoyat qilay.

Janobi o‘shal Hodi Xo‘ja eshon,  
Olur o‘zlarin ag‘niyozi zamoni.

Xayolida Xo‘qonda diydur: «qani,  
O‘zumdan bo‘lak xo‘ja sayyid, g‘ani?»

Berib oqcha Viktorga o‘n yetti ming,  
O‘tar qon bilan ichlaridan yiring.

Qilib maxfi eldin pulin qistag‘ay:  
— Sango manda jon oshnosini, — degay.

Chunonchi bu yil Andijon odami  
Hayon ayladi sandin o‘n ming kami.

Olib baski yetti yarim paxtani,  
O‘n ikki yarimg‘a itardi sani.

Ba va‘da ipak olibon sanga man,  
Bahosida bergen edim tan ba tan.

Bo‘naklarni bir so‘mig‘a o‘n baqar  
Berilganda ham shulki haqqing ketar.

Kelib tushtilar boylari Andijon,  
Afandimni havlisida mehmon.

Muqarrarki, hojim sanga uchragay,  
Alar oqchasi vajhidin so‘zlagay.

Kelib bo'sh afandig'a sen zinhor,  
Butun bermag'il pullarin zinhor.

Berib ko'nduray bir so'mig'a yarim,  
Charokim o'zimni tug'ushkonlarim.

Biri xolabachcham, birisi akam,  
Kichigi ukam, mo'ysafidi dadam.

Xatim ko'zga surtib qilishgay tumor,  
Qabul aylagay manda deb ixtiyor.

Degaylar: ishim bor, ketay, bormu may?  
Yomon diqqat o'ldim bukun oz ichay.

Ko'tarilsa shoyad ko'ngildin g'ubor,  
Vale kimsag'a qilmag'il oshkor.

Birov ichkanim bilsa yaxshi emas,  
Icharmanda bo'lsang kishiga demas.

Ko'ngullar tilab sanga derman sirim,  
Degaylar meni barcha mardum: pirim.

Shariatda mayki, bilurman, harom,  
Kishi bilmagay deb, budur iltijom.

Qilib ichkilik du-badu yoshirin,  
Ketar chog'da havlisig'a kechqurun.

Degaylar Karim oxunum mehmon,  
Borur bu kecha odaming bir zamon.

Samovar qo'ysun, deb olib ketib,  
Eshik, teshik-u darchani berkitib...

Bir oqshom edi: «bor!» dedi, bormadi,  
Beri qildi Oxun boshin yormadi.

To'lib o'pkasi yig'labon zor-zor,  
Dedi: «Muncha oxir deding, – bor-bor.

Eshikingda qo‘ysang agar ot boqay,  
O‘lumga buyursang boshim-la chopay.

Borib qay kecha bo‘ldi korim tamom,  
Tomog‘imdan o‘tmas hanuz ham taom...

Javobimni berg‘il, agar bor desang,  
Yuray yoki qo‘y bormag‘il, bor desang».

Eshitkach Oxun ushbu hangomani,  
Olib boshga qotti kulib jomani.

O‘tib buyla pinhon qiziq mojaro,  
Uruslarga bo‘ldi magar bir balo:

Bu ham sindi nogoh Laxtin sabil,  
Berishtimu bilmamki bir-birg‘a til.

Yig‘ildi tamomi puli borlar,  
Qilib jonlarig‘a bu g‘am korlar.

Demang ushbu so‘zlarni siz o‘truk,  
O‘tuz ikki oyg‘a olishti suruk.

Xabar do‘g‘ma berdi puldor kelib,  
Olur eski veksilni yangi qilib.

Bo‘shon bist hazor oqchag‘a begumon,  
O‘n ikkiga veksilni yangilogon;

Sakiz mingig‘a o‘zi maxfi borib,  
Bo‘nak yangilab keldi charchab-horib.

Bu ishga jamii tijoratchilar,  
Dedilarki, devona – Majnun magar.

Bu asnoda topdi Musajon shikast,  
Qilib gardi nakbat yuzig‘a nishast.

Puli bor edi ming so‘m munda ham,  
Urusdin yomon muncha chekdi alam.

O'shal oqshomi uyqusi kelmadi,  
Nihon dard-u so'zi kishi bilmadi.

Dedi uchrab o'tkanda Mavlon aka:  
«Siza iltimosim bu kim: jon aka,

Olib bersangiz oqchami olti ming,  
Boring besh yuzini o'zingiz oling!»

Dedi boyki: «Andin pul olmoq qiyin,  
Busotida anqo erur bir tiyin.

Agar yetsa edi unarga ko'zim,  
Olur edim avval pulimni o'zim».

Yo'liqtı bu o'tib, kelib Rudnik,  
Debon: «Nu, davay idras» olib ilik.

Musajonga «Aqchang, — dedi, — qancha bor?»  
Dedi: «Bir ming uch yuz va olti hazor».

Bu so'z ham, deyin, qolmag'ay to nihon,  
Kelib Qosimi suyidin Andijon.

Dedikim: «Qani uch mingimni bering,  
Va garna shariat desangiz yuring!»

Iki mingchani oldi, bir mingini,  
Tushib o'rtasig'a og'o-yu ini;

Otang yaxshi deb yelkasiga qoqib,  
Xalos ettilar otka zo'r lab toqib.

Bu ham borki, o'g'li edi chitfurush,  
Do'konini berkitdi, deb, «qildi kush».

Xo'qand oldurub keldikim mol olib,  
Beray yig'lamay borib, o'ltur solib;

Kishi bermadi va'daga molini,  
Kafil nusrat oldi juhud sholini.

Qilib mehmon non-u choyi bilan,  
Jo'natti yahudini boyi bilan.

O'tib so'mi bir ming, yoqib jonni ham,  
Ololmay baholab, olindi gilam.

Okosini o'g'lin yana dam-badam,  
Yubormoqchi Maskovga — yo'q bir diram...

Putin olti tiyindan qaror ayladi,  
Bo'lush oqchasini shumor ayladi.

Giloba berib uzdi qiymat baho,  
Olib surdilar ko'zga aylab duo.

Kelib kimnikim oqchasi bor edi,  
Unish bir so'm o'lguncha dushvor edi.

Agarchand narxi ziyod o'lsa ham,  
G'animat ko'rib oldilar besh-u kam.


Agar qistasa qarzlar aqcha yo'q,  
Va lekin bu yanglig' toroqo-turuq;

Sonur o'zlarin Xo'ja Ahrori vaqt,  
Piyoda jilovida iqbol-u baxt...

Agar xayrdin so'zlassa har kishi,  
Urarkim, sinar o'ttuz ikki tishi.

Gado qo'lida ko'rsa nogoh non,  
Degay: — «Bergan odam emas musulmon!»

Qilay man ham emdi so'zimni tamom,  
Malolovar o'lg'ay cho'zilgan kalom.



## **VOQIAI KO'R ASHURBOY HOJI**

Ajab xalq ekanmiz, ajab ro'zg'or,  
Qiziq hodisa, turfa layl-u nahor.

Ashurboydin eshiting qissaye,  
Ayo ey bu Farg'onada nomdor.

Qorovul uyidin yarim oqshomi  
Banogoh bo'ldi fig'on oshkor.

Mahalla bu hangomadin uyg'onib,  
Eshigiga keldi sag'ir-u kibor.

Qorovul, istarshi-yu mingboshilar,  
Chopib keldilar, deb: nachuk kor-zor?!

Bosib kirdilar bu nachuk dod deb,  
Qorovulning uyig'a, beixtiyor...

Ko'rub dedilar: boy ekan, qochiring,  
Ashur ko'r o'zi ham bo'lub beqaror.

Qo'yub tomga bir buzuq norvon,  
Qo'lidin tutib ko'mni, qildi duchor.

Iki-uch pog'ona chiqib, shoshilib,  
Yiqildi, sinib shoti, ul murdavor...

Itorib ketidin pishanglar bilan,  
Azob ila tomga qilishdi suvor.

Qochar erdi tomda sarosima ko‘r,  
Chap-u rostig‘a muztar-u beqaror.

Xalojo edi, tuynukidin ani –  
Ketib boshi birlan o‘sha nobakor.

Turub hovlining sohibi nogihon,  
Chirog‘ida naqzi vuzug‘a chiqor.

Xalojoda pish-pish qilur bir nima,  
Dedi: ne balodursan, ovozing chiqor!

– Sekinroq gapir, men Ashurboy... – dedi, –  
Qochib o‘lturibman, senga intizor.

Bu so‘zda xaloyiq g‘uluv aylashib,  
Tutib chiqdilar etgali sangsor.

Qorovulni, xotin, qizi, boy ni  
Garonishga keltirdilar har chahor.

Kirib ilgariroq kordon qoshig‘a,  
Sirimni ochib qilma deb sharmsor.

Qo‘lingga tushub fe’li shayton bilan,  
Dedi: tovba qildim hazoron-hazor.

Pristupga ma’lum qilmoq uchun,  
Olib kirdilar to‘g‘ri aylab qator.

Dedi: nega bosting birovning qizin,  
Bobo hoji bo‘lsang, kuples – moldor.

– Urushib edi er-u xotin bular,  
Yaroshturg‘ali qilgan erdim guzor.

O‘ris to‘ra oldida munkir kelib,  
Dedi: tuhmat aylar olurg‘a niqor.

Shariatga aylab havola, dedi:  
Bu da'voga teyishli qozig'a bor.

Haqorat qilingan kishilar qolib,  
Topib boy so'zi bunda zo'r e'tibor.


Qachon kambag'allarning so'zi o'tar,  
Agar bo'lsa aqchang, so'zing zulfiqor.

Nihoni sochib siym-u zar suv kabi,  
Bosildi mashaqqat bilan bu g'ubor...

Xaloyiqg'a qilmas edi ixtilot,  
Agar tab'ida bo'lsa nomus-u or.

Muqimiy, senga ushbu so'z ne kerak,  
Bo'lak har kimi kor-u a'moli bor.

Va lekin eshitkonga tanbih bo'lub,  
Qolur safhai dahrda yodgor.



## **AVLIYO**

Boshlarida shapka gohe, goh dastor avliyo,  
Qo‘llarida subha-yu bo‘ynida zinnor avliyo.

«Tavba» deng oxir zamona chiqsa bu yanglig‘ chibok,  
Har (xotinga) oshiq-u har (qizga) xushtor avliyo...

Shul erur kashf-u karomatiki bo‘ylab subh-u shom,  
Chiqsa har yerdin bir is hozir xabardor avliyo.

Doimo beparda so‘z xalq ichra aytur beibo,  
Bo‘lmaqay deb qo‘rqaman nogoh sangsor avliyo.

Toza ilkini yuvib, yeydur halol anglab gumon,  
Uchrasha har yerdakim makruh-u murdor avliyo.

Gar muqallid bo‘lsa po‘stun birla toqat qilmasang,  
Muz qiziqliklar, yog‘ar taqlididin qor avliyo.

(Gavdasidin) yo‘q bo‘lak og‘irligi dunyoda hech,  
Oxirat sori safar qilsa sabukbor avliyo...

Filhaqiqat, bo‘lma g‘aflatdin badandesha, Muqim,  
Baski, shuhrat topti rasvolikda bisyor avliyo.



**TA'RIFI PECH**

Sovuq qayda ekan oromi jon pech,  
Degaykim ba'zi nodonlar: yomon pech.


Eshikdin qaltirab kelsang isitgay,  
Ki mushfiq voldangdin mehribon pech.

Sovuq dushman bo'lib ursa shaboxun,  
Qilurg'a daf'i ul sohibqiron pech.

Zimiston faslida qursang uyingga,  
Huzuri dil, chu bog'-u bo'ston pech.

Chu tortib kelsa lashkar qor-u boron,  
O'zi tanho qochurg'ay qahramon pech.

Kelur na sandali to'g'ri, na gulxan,  
Chiqorg'onin, Muqim, etkay omon pech.



## **AROBA**

Bozor chiqmay endi zinhor, aroba qursin,  
To kelganingcha aylar bezor, aroba qursin.

Nogoh kayfi uchkay kelsa agar taraqlab,  
Ichgan giyohi bo'lsa ko'knor, aroba qursin.

Keng ko'chalarni qilg'ay o'lguncha besaranjom,  
Qilmay o'shal hunar deb najjor, aroba qursin.

Yuklangan ersa g'alla, yursin omonki ma'zur,  
Eski so'log'i chiqqan, bekor aroba qursin.

Qishloq betamizi bir igna olsa qo'shib,  
Tang rastasiga kirgay attor, aroba qursin.

Bo'lsa kiroyi tushsang purjinalik kalaska,  
Garchandkim qilurlar guldor, aroba qursin.

Luchchak arobakashlar ko'kka boqib g'o'daygan,  
Bosqay yuolmaganda hushyor, aroba qursin.

Aylantirib boshingni, dil behuzur doim,  
Mindim, netay, safarda nochor, aroba qursin.

Chiqsang, Muqimiyl, bozor, aylarga daf'i savdo  
Qilg'ay jahonni ko'zga ko'p tor, aroba qursin.



## QO'QONDAN SHOHIMARDONGA

Faryodkim, garduni dun  
 Aylar yurak-bag'rimni xun,  
 Ko'rdiki, bir ahli funun –  
 Charx anga kajraftor ekan.

Qolmay shaharda toqatim,  
 Qishloq chiqardim odatim,  
 Xohi yayov, bo'lsun otim,  
 Gah sayr ham darkor ekan.

«O'Itarma»ga qildim yurush,  
 Yo'ldosh edi bir chitfurush,  
 Yetdim jadallab vaqtি tush,  
 Birdam qiziq bozor ekan.

Bir ma'raka ko'rdim butun,  
 Jam'i yopingan boshga to'n,  
 Boqsamki, besh yuzcha xotun,  
 Voiz so'zin tinglor ekan.

Mingboshilik kimning ishi,  
 Desam, dedi bedonishi,  
 Bir «Qo'shtegirmonlik» kishi,  
 Xo'ja Iso badkor ekan.

Mag'rur, xasis-u besh-u kam,  
 Har gapda yuz ichgay qasam,  
 Takjoy olur moxovdanam,  
 Hoji o'zi murdor ekan.

«Do‘rmancha»ga ketdim o‘tub,  
Yoqamni har soat tutub,  
Yotdim ul oqshom g‘am yutub,  
Dashti qaroqchizor ekan.

Unda bo‘lus G‘ozi dedi,  
Ham mufti, ham qozi dedi,  
Yurt barcha norozi dedi,  
Qilg‘on ishi ozor ekan.

Boz izdihomni voizi,  
Badkayf, ochilmas ko‘zi,  
Yuqori boshidin tizi,  
Ermaklari ko‘knor ekan.

So‘rsam dedilar «Bo‘rbaliq»,  
Birmuncha echkilar ariq,  
Kelsa kishi yeyar tariq,  
Shom-u sahar tayyor ekan.

«Oq yer»din o‘tdim, boylari —  
Oliy imorat joylari,  
Mehmonsiz o‘tkay oylari,  
Kelsa birov nochor ekan.

Ammo nazarda «Roshidon»  
Firdavs bog‘idin nishon,  
O‘ynab oqar obi ravon,  
Sahni gul-u gulzor ekan.

Ma'yus bordim «Zohidon»,  
Bir ko‘cha ketguncha do‘kon,  
Sho‘x odami, ichmay piyon,  
Mast, otasi bezor ekan.

Suvlar sepilgan so‘rilar,  
Bo‘rlangan o‘choq-mo‘rilar,

Tab'ing mabodo choy tilar,  
Damlashlari ishqor ekan.


«Oltiariq» qursin o'shal,  
Sellarda qoldim bir mahal,  
Bo'ldim ivib yomg'urda shal,  
To'n shilta, ho'l ezor ekan.

Mingboshisi so'finamo,  
Tasbih-u bo'ynida rido,  
Cho'qub qochar zog'i alo,  
Bir dog'uli ayyor ekan.

Xayr-u saxo vajhiga kar,  
Bir pulni yuz yerdin tugar,  
Kelsa gadoy nogah agar,  
Bir non chiqish dushvor ekan.

Ko'rdim chuqur «Chimyon» erur,  
Yer ostida zindon erur,  
Dushmanlari mehmon erur,  
Bog'i uning tutzor ekan.

«Vodil» maqomi dilmizo,  
Ko'chalaridur dilkusho,  
Anhorida obi safo,  
Sebarga, obishor ekan.



## **QO‘QONDAN FARG‘ONAGA**

Chun shahridin chiqdim «Qudash»,  
Ko‘ngul bo‘lib mahzun-u g‘ash,  
Majnunsifat, devonavash,  
Serchashma-yu kam chang ekan.

«Yayfan» agarchi xushhavo,  
Odamlari yengilnamo,  
Bir-birlari-la doimo  
Bo‘lar-bo‘lmasga jang ekan.

«Nursux» kabi bir joy kam,  
Tushmay o‘tib qildi alam,  
Olma, anor o‘rniga ham  
Bog‘ida tok-u zang ekan.

Ko‘p odamidin «Beshariq»,  
Bog‘larda ekmishlar tariq.  
Yetim haqi — go‘shti baliq,  
Qilmishlari nayrang ekan.

Charchashni bilmas yursalar,  
Purzo‘r ketmon ursalar.  
Vaqti namozga kelsalar,  
Masjid soriga lang ekan.

«Rafqon» ajoyib joy ekan,  
Bir ko‘cha ketgan soy ekan,  
Salqin supa hoy-hoy ekan,  
Kim ko‘rsa hang-u mang ekan.


Ozodadin to'pori ko'p,  
Dukchisidin attori ko'p.  
Choyxo'ridin ko'knori ko'p,  
Bir rasta nos-u bang ekan.

Ayvonchalar misli katak,  
Bir yo'lki, odam siqqudak,  
Chit birla bir yerda alak,  
Bozori tor-u tang ekan.

Xuftonda kirdim bir do'kon,  
Qildi ashula bir juvon,  
Eshak demang, undin yomon,  
Hangrarda yaxshi hang ekan.

Qiyg'ir ko'targan uch yigit,  
Uxlatmadilar bir minit,  
Ham boshda tong otquncha it  
G'ingshib chiqib, vang-vang ekan.

Aylab sayohat endi bas,  
«Konibodom» qilmay havas,  
Har yerda yotgan xor-u xas,  
Ko'zga tikan yakrang ekan.



## **QO'QONDAN ISFARAGA**

Aflok kajraftor uchun,  
Har dam ko'ngul afgor uchun,  
Xo'qand tang-u tor uchun,  
Sahro chiqish darkor ekan.

Bordim shahardin «Yakkatut»,  
Baqqoli duzdi badburut,  
Bir tanga sotkay bir qurut,  
Insofi yo'q, trror ekan.

Qishloq juvoni yig'lishib,  
Issig'da o'ynashgay pishib,  
O'tgan tamoshobin tushib,  
Seshanba kun bozor ekan...

Mingboshi Eshdavlat akam,  
Ammo quruq savlat akam,  
Qilsa chiqim gar bir diram,  
Uyqu qochib, bedor ekan.

«Yayfan» kabi tolzor kam,  
Yo'q soyasida zarra g'am,  
Zebo sanam, qoshi qalam,  
(Jonon)lari bisyor ekan.

Do'malari ham xo'b bajo,  
Volosnoyi uhdaburo,  
Yurt ishlarini doimo  
Xayriyatин ko'zlor ekan.

«Nursux» kabi ham yurt yo‘q,  
Bog‘dor-u dehqon qorni to‘q,  
Masjidlari ham ko‘p uluq,  
Turfa farah osor ekan.

«Rafqon»ni bozor joyi tang,  
Mullolari chaqqon, garang,  
Omilari ham mullarang,  
Ko‘ylak kiyib, dastor ekan.

Gar mevasi bir tup sotar,  
Bir pulni yuz yerdin tugar,  
Bersa gadoga non agar,  
Ming yilda ham dushvor ekan.

Ammo «Raboti» bachchag‘ar,  
Yo‘q hech odamdan asar,  
Bir podajoyi gov-u xar,  
Chun og‘uli tayyor ekan.

Du bora yurdim dashtlab,  
Bodom koniga qarab;  
Mirza Umarni so‘rag‘lab,  
Havlisida najjor ekan.

Bo‘lg‘ay o‘shal Burhon omon,  
Yaxshi yigitdur begumon,  
Xursand qildi nogahon,  
Mingboshi Xol sarkor ekan.

Armonki, ko‘prak yurmadi,  
Bir-ikki hafta turmadim,  
«Tikka Rabot»ni ko‘rmadim,  
Purfayz buzrukvor ekan.

Ma'yus chiqdim «Isfara»,  
Dil xasta, majruh-u yara,

Issiqqa kuygan qop-qora,  
Olti jihat ko'hsor ekan.

Anhor-u soy-u cho'llari,  
O'ynab kelodur suvlari,  
Shirinki zardolulari,  
Qand-u asal bekor ekan.

Shersiz emasdur beshalar,  
Bordur saxovat peshalar,  
Qilmang yomon andeshalar,  
Yaxshilari ham bor ekan.

Qozi juvonmardi nako',  
Borib-kelibon chorjo',  
Nogah bo'lib dardi gulo',  
Sanchiq tutib bemor ekan.

Hoji Zuhur ham O'rdada,  
Sarhavzlar, oliy sada,  
Borsa agar bir g'amzada,  
Jonig'acha esor ekan.

Bovvachchasicdur badburush,  
To'g'ri so'zi achchig'-turush,  
Sil, eski bachcha, choyfurush,  
Hofiz Umar, Qahhor ekan.

Bo'lma halovatga kasal,  
Olamda yo'q benish asal,  
Beshak mukofoti amal,  
Dunyo qurulg'on dor ekan.

Alhamdulillo, bexatar,  
Keldim Muqim aylab safar,  
Muztar qolib, ko'rmay zarar,  
Haq bandasiga yor ekan.

## **ISFARA SAYOHATIDAN**

*(Yangi topilgan parcha)*

Shahr ichra toqat toq o'lub,  
Dubora yo'llar qoq o'lub,  
Ko'z Isfara mushtoq o'lub,  
Avval chiqish «Yayfon» ekan.

Kun tobishida bu safar,  
Yo'llar saqardan ham batar,  
Tog' ichra rahzan bachchag'ar,  
Ko'p elni qaqshatkon ekan.

Ketguncha yo'llar xorlar,  
Yo'l zaxmidin ozorlar,  
Ko'kka yetar ko'hsorlar,  
Hayhot, xoriston ekan.

Qir pastida sho'rtang arig',  
Bir to'p yigit o'rgay tariq,  
To'nsiz, yalong'och, hay darig',  
Bechora, och dehqon ekan!

Kam g'ayri Qahhor-u Umar,  
Farg'onada hofiz digar,  
Bilmas ekanman, bexabar,  
Navmidlar xushxon ekan.

O'tkan kitobdori zamon,  
Xattiga hayron ins-u jon,  
Chun daxmasi go'yo jinon,  
O'qishlari qur'on ekan.

«Chorko‘»ga ham keldim yetib,  
Otdin yiqildim shilp etib,  
Behush o‘zimdin men ketib,  
Man saxt bedarmon ekan.

«Chorko‘» g‘o‘zorin tor bil,  
Atrofini ko‘hsor bil,  
Panjshanba kun bozor bil,  
Bir-ikki-uch do‘kon ekan.

Boy mardikori machchoyi,  
Chuntog‘ somonlik loyi,  
Bechoraga non-u choyi  
To‘n o‘rnida o‘tkon ekan.

Ammo amin Abdurasul,  
Kim borsa xizmatkor ul,  
Yaxshi yigit, ochiq ko‘ngul,  
Yurt ustida turg‘on ekan.



## MUNDARIJA

<b>G‘azallar .....</b>	<b>3</b>
Navbahor .....	3
Yakka bu Farg‘onada .....	4
Arzimni aytay .....	5
Farhod aylading .....	6
Aylading ketding .....	7
Lolazor aylab keling .....	8
Qachong‘acha .....	9
Jamolingni ko‘rub .....	10
Yolg‘uz .....	11
Qayda boray .....	12
Dilni afgor aylading .....	13
Ey yori jonim .....	14
Aql-u hush .....	15
O‘zgani yor etmayin .....	16
Bir kelib ketsun .....	17
Kim desun .....	18
Zulm ila qahr-u g‘azab .....	19
Anor .....	20
Ra’nolig‘ing bordur .....	21
Oshiqi hayronlaring bordur .....	22
Inson bo‘ldimu .....	23
Kel ertaroq .....	24
Ohista-ohista .....	25
O‘rgulsun quling .....	26
Ko‘zlarinq .....	27
Nazokat bog‘ida .....	28
Yo‘q dilraboye san kabi .....	29
Orazingni namoyon qil .....	30
O‘ynaylik, kulaylik .....	31
Zor aylading sen ham .....	32

Beparvolog‘ingdan dog‘men .....	33
Bormukin .....	34
Qilmasun .....	35
Ayrlimasun .....	36
O‘xshamas .....	37
Xayriyat .....	38
Orzu .....	39
Bir menmu .....	40
Jahon bog‘ida .....	41
<b>Murabbalar</b> .....	42
Yuzni oydek .....	42
Oshnolig‘ing yodimga tushdi .....	43
Ey chehrasi tobonim .....	44
Ko‘nglim sandadur .....	45
<b>Muxammaslar</b> .....	46
Kashmirlilik qizga .....	46
Ko‘zlarинг .....	48
Ohkim, holimni so‘rmas oshnolardin biri .....	50
Intizor o‘lturgusi .....	52
Ruxsoringiz chirolyik .....	54
Ixtiyor etmazmidim .....	56
Kim desun .....	58
<b>Satiralar</b> .....	60
Tanobchilar .....	60
Maskovchi boy ta’rifida .....	63
Axtaring .....	67
Hapalak qishlog‘i to‘g‘risida .....	68
Darig‘o mulkimiz .....	70
Voqiai Viktor .....	72
Voqiai ko‘r Ashurboy hoji .....	77
Avliyo .....	80
<b>Yumorlar</b> .....	81
Ta’rifi pech .....	81
Aroba .....	82

<b>Sayohatnoma .....</b>	83
Qo‘qondan Shohimardonga .....	83
Qo‘qondan Farg‘onaga .....	86
Qo‘qondan Isfaraga .....	88
Isfara sayohatidan .....	91

*Adabiy-badiiy nashr*

**MUQIMIY**

**SAYLANMA**

*Toshkent «Ma'naviyat» 2009*

Muharrir *U. Qo'chqorov*

Musavvir *T. Qanoatov*

Texn. muharrir *T. Zolotilova*

Musahhih *O. Bozorova*

Kompyuterda tayyorlovchi *G. Otaskevich*

Bosishga 10.08.2009-y. da ruxsat etildi. Bichimi 84×108/<sub>32</sub>, Tayms garniturasi. Offset bosma usulida bosildi. Shartli b. t. 5,04. Nashr t. 2,52. 5000 nusxa. Buyurtma № 668. Narxi shartnomaga asosida.

«Ma'naviyat» nashriyoti. Toshkent, Buyuk Turon, 41-uy. Shartnomaga 22-09.

«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida chop etildi. 700083. Toshkent, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy. 2009.

ISBN 978-9943-04-052-6



9 789943 040526

